



❖ SO'Z CHAMANI ❖

Abduvali &
QUTBIDDIN





SO'Z CHAMANI

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
«IJOD» JAMOAT FONDI

*To topibon xush takallum tuzay,
So'z chamani ichra navo ko'rguzay.*
Alisher Navoiy

Abduvali QUTBIDDIN

16+

Toshkent
«Akademnashr»
2020

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')6

B 37

**B 37 Abduvali Qutbiddin [Matn] : she'rlar / nashrga tayyorlovchi
J. Jahon. - Toshkent : Akademnashr, 2020. - 128 b.**

ISBN 978-9943-6359-5-1

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')6

Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi:

Jo'rabek JAHON

«So'z chamani» turkum kitoblarining navbatdagi risolasi Abduvali Qutbiddin she'rlaridan tuzildi. Ushbu rango-rang guldasta ham muhtaram she'r muhiblariga sevimli bo'lishiga ishonamiz.

ISBN 978-9943-6359-5-1

© «Ijod» jamoat fondi, 2020

© «Akademnashr», 2020

BIZ BIRGAMIZ, BIZ HAMMAMIZ

Olislarda qo'ng'irog'in chalar karvon,
Yuki og'ir, yo'li og'ir, larzon-larzon,
Chaqmoqlarin chaqib o'tar qora osmon,
Ko'kragiga mushtlar urar mardi maydon –
Er yigitlar,
Sher singillar, qilich-qalqon.
Qani, birdan:

Biz birgamiz, biz hammamiz,
Aziz vatan, jonim vatan, shonim vatan.

Qoya cho'kar Alpomishning na'rasidan,
Soylar sakrar adirlarning orasidan,
Qarg'a qo'nmas Barchinlarning tizzasiga,
Hayot suvi mangu ona ko'zasida.
Er yigitlar,
Sher singillar shevasida:
Qani, birdan:

Biz birgamiz, biz hammamiz,
Aziz vatan, jonim vatan, shonim vatan.

Kuydirgani zulmat bilan yurdi qancha,
Bolta o'ynab ot ustida yanchib-yancha,
Suv tubidan o'tlar chiqdi ko'k qoshiga,

Er yigitlar,
Sher singillar ko'z qoshidan
O'qlar sachrar, yoylar sachrar yov boshiga.
Qani, birdan:

Biz birgamiz, biz hammamiz,
Aziz vatan, jonim vatan, shonim vatan.

Dunyo uxlar, kun mudrardi hisob bilmay,
O'tdi davri davronlari kitob bilmay,
Xorazmda sanoq chertdi ajdodlarim,
Ruh va qalbga saboq berdi ustodlarim.

Ilmi urfon nomi Turon,
Er yigitlar, sher singillar
Qazdilar kon.

Qani, birga:

Biz birgamiz, biz hammamiz,
Aziz vatan, jonim vatan, shonim vatan.

Bizlar kimmiz, turkiylarning aslidanmiz,
Sohibqiron Amir Temur naslidanmiz,
Kubro ham biz, Bahouddin Naqshbandmiz,
Marg'inoniy, qadim tarix – Samarqandmiz.
Gar Nasafda nafas olsa er yigitlar,
Andijonda kashta tiksa sher singillar,
Nafasidan hatto qishlar isib ketar,
Kashtasiga butun olam sig'ib ketar.

Qani, birdan:

Biz birgamiz, biz hammamiz,
Aziz vatan, jonim vatan, shonim vatan.

Yurtning usti Ustyurtmidi, shamol – shoqol,
Uv dedimi, tuz qo'zg'alar birvarakay.

Nukus – qal'am
ham yurakda tengsiz lolam,

Ey onajon, Berdaqqa ayt,

Qalbidir nay.

Er yigitlar, sher singillar,

Ash'or tinglang.

Qani, birdan:

Biz birgamiz, biz hammamiz,
Aziz vatan, jonim vatan, shonim vatan.

O'zim shohid Motrudiyning xobgohida

Musichalar uchib kelar tilovatga.

Buxoriyning har ertalab dargohiga

Kabutarlar boshin egar halovatdan.

Bu qay oshyon?

Go'zal imon panohida,

Er yigitlar, sher singillar

Nigohida.

Qani, birdan:

Biz birgamiz, biz hammamiz,

Aziz vatan, jonim vatan, shonim vatan.

Azim Toshkand qad rosladi pahlavonday,
Toj-u taxtim ko'z-ko'z qilib bu jahonga,
Tug'romizni tumor aylab eshik ochdi,
Yer yuziga buyuklikdan so'zlar sochdi.

Podsho shahrim,
Gard yuqmasin jamolingga,
Er yigitlar,
Sher singillar saf tortishar,
Ozodlikning maydonida
Ahd aylashar.

Qani, birdan:

Biz birgamiz, biz hammamiz,
Aziz vatan, jonim vatan, shonim vatan....

Oltin vodiylar halqasida uch gavharim,
Sirdaryoda sir bermagan mohpaykarim,
Baxmalini to'shab qo'ygan Jizzaxni ko'r,
Kakliklardan Zomin haqda qo'shiqlar so'r,

Er yigitlar,
Sher singillar,
Bo'linglar jo'r.

Qani, birdan:

Biz birgamiz, biz hammamiz,
Aziz Vatan, jonim vatan, shonim vatan..

Dur-u marjon, bog'-u bo'ston O'zbekiston,
Ko'zim nuri, musaffo tong O'zbekiston,
Sajda etdim duo so'rab, bobo yurtim,
Har lahzada rizo so'rab, momo yurtim,

Er yigitlar, sher singillar

Qo'l ko'tardi,

Ona, inon,

Ota, inon.

Qani, birdan:

Biz birgamiz, biz hammamiz,

Aziz vatan, jonim vatan, shonim vatan...

DA'VAT

Ko'ngil obod o'lsa, unda xatar bo'lmas,
Obod bo'lmoq inson uchun ulug'likdir.
Agar unda chiroq yonsa yorug'likdir,
Yorug'likda tonglar axir urug'likdir.
Shu tonglarni avlodlarga kim atadi,
Bog'larimiz ko'ngil bilan kim butadi?
Qalbga qo'yib anglab oling davronimni.

Qancha qayroq qayradilar ko'z olayib,
O't qo'ydilar ichi quruq xashaklarga,
Kibrlarga, hasadlarga, shaq-shaqlarga,
O, qanchalar yuragidan ketdi mayib,
Haqiqatning olovidan zum bujmayib.

Tik turdi-ku Bahouddin Naqshbandiy,
Sohibqiron, Bobur mirzo, Ulug'beklar,
Keshiylar-u Shoshiylar-u Dilbandiylar,
Ahli Xorazm, Xo'qandiy-u Samarqandiy,
Ulug' yo'lga ot qo'ydilar o'zlug' beklar.

O'zligimiz sari ketdik ko'krak kerib,
Orzular-u umidlarni bir-bir terib,
Buyuk davlat quyoshiga ixlos berib,
Bolamizga shijoatni meros berib,
Ham o'rganib, ham o'rgatib ketmoqdamiz,
Umr o'tar, asta-asta o'tmoqdamiz.
Ammo ko'ngil xotirjamdir, to'g'ri bo'ldi,
Oydinlik ham bag'rimizga bag'ir bo'ldi.

Ming yil o'tar, o'zgaradi bu dunyolar,
Balki, namxush tortib qolar xush havolar,
Balki, to'fon ko'taradi sho'x sabolar,
O'zgarmaydi to qiyomat ahd-u paymon,
O'zgarmaydi yer yuzida O'zbekiston,
Yashnayverar hurriyatdan taralgan nur,
Rangi o'chmas, qoni ezgu bu ziyolar.

Mangulikdir chin mehnatlar va zahmatlar,
Iqbolimiz uchun yongan bu hikmatlar,
Ajdodlarning ruhi aytgan bu rahmatlar,
Kelajakning uyi yanglig' bu maktablar,
Bu ishonchlar, bu tuyg'ular hamda surur.

Adashmaylik, qayishmaylik, egilmaylik,
Xiyonat-u aldovlarga bukilmaylik,
Ag'yorlarning kimxobiga tikilmaylik,
Ayrilmaylik orzulardan va vatandan.

Shukrona ayt, Abdulvali, iqbolingdan,
Gul baxtingdan, buguningdan, zilolingdan,
Bilding axir O'zbekiston va shavkatni,
Ona vatan degan qutlug' tariqatni,
Shu tariqat poydor bo'ldi, qullug' qilgil,
Ozodlig-u obodlikni sen tug' qilgil.

Ildamlagin Istiqlolning yo'llaridan,
Bu yo'llarki saodatga eltguvchidir,
Hech tushirma bayrog'ingni qo'llaringdan,
Adl turgan murodiga yetguvchidir.

Da'vatim shu vatan Alloh nazardandur,
Yurtshaydolg' vojib Xo'ja Xizrdandur.
Vatan axir iymon uchun bir sajdagoh,
Kimki vatan ichra bo'lsa, o'shal ogoh.

Iymondandir xizmat qilmoq raiyatga,
Butun xalqqa, aziz yurtga, haqiqatga,
O'zbekiston degan buyuk muhabbatda,
Yashab birga,
Ketib birga,
Tirilganda

O'zbekiston – jonajonim, vatan desak,
Parvardigor, o'zing uni asra desak,
Shu yurt uchun porlat desak ko'zimizni,
Tuproq'iga tuproq qilgin o'zimizni.

Onajonim,
Jondan suyuk
Vatan desak!

Vatan desak, vatan desak, vatan desak!

SAMARQAND

Nonvvoyxona tomidan balandroqda
Bulut qo'nishdi,
Katta patir bo'ldi Darg'om tepasida.
Afrosiyob xarobalari yonida
Alp yumshoq bulutni ushladi,
Burdalab uloqtirdi Zarafshonga...
«Samarqand sayqaldir ro'yi zaminga...»
Qandahorda nyu-jersilik askar
Oyga o'q uzdi, odamga emas,
«Ulug'bek shahrida odamlar unni
Ko'pchitib non qasrlarini quradilar», –
Pichirladi sho'rlik.
Shunda oy botgan tog'dan gumburladi anglanmas g'azab,
Nimtalangan tanadan ruh silqidi yop-yorug':
«Samarqand, tinchlik ber ro'yi zaminga...»

U yerda, Cho'ponotaning bag'rida,
Varrak uchirardi bolakaylar,
Allaqanday bobo va momo varrakka qo'shilib
Qanot qoqishardi qiroat bilan.
(Amir Temurmikin, Bibixonimmikin....)
Bir oyga kelgan italiyonlik muhandis,
Uch yil bo'ldi, ketmas,
Menga turmushga chiq,
Shahring qadriga yetdim deydi Mohinurga,
Samarqandlik bo'lish uchun uch yil yetmas deydi
Mohinur...
Uch ming yil yetmas deydi Mohinur,
Bog'i Shamoldan oq fotiha ol,
Xo'ja Zulmuroddan murod so'ra va sev,
«Samarqand muhabbatdir ro'yi zaminga...»
Siyob bozorida zarmitanlik ena
Qatig'ini ko'pchitib, qurtini donalab,
Dam solib sotadi yetmish yildan beri:
Olsang-la tilladay bo'lar niyatlaring..
Alalxusus, Samarqand tilla niyatlar sochar ro'yi
zaminga...
Har ikki yil orasi Motsart
Ziyorat qilar ekan Registonni,
Eng qadimiy nayni chalib avgust panasida.
Mashshoqlar, sozandalar, qo'shiqchilar
Bulbul chamaniga oshiqar samimiy.
«Samarqand tarona ro'yi zaminga...»
U ohanrabo, mudom chorlayveradi o'ziga,

Qutb-u qudrat berar chin dildan talpinsa,
Sukut berar, subut berar, osoyish, orom,
Jannat eshigini ochar, ulug'lar shohid:
«Samarqand najotdir ona zaminga...»

Elliklab qoldim,
Ko'nglim o'n beshday,
Xat yozgim kelar sinfdosh qizga
«Men seni... sevaman... men seni...»
Darg'omning bo'yida cho'lg'otgim kelar,
Maysalar sochini, sevgilim aksini...
Kulimsib, kulimsib – shodligim po'rtana,
Arg'umoq jilovin tortib, shopillab,
Qamchinni bir urib, Zarafshon uzra
Sepkili toshgan kunduzning bag'riga
O'tib ketolsaydim ovozim gupillab.
«Samarqand!
Sen bitta
Ro'yi zaminda...»

O'ZBEKLAR

O'zbeklar Xudoni tanirlar, tanirlar,
Yurakni tanirlar, ko'ngilni tanirlar.
Ko'zlari chug'urchuq ko'zidan jovli –
Do'stni bilarlar-u, dushmanni bilmaslar.

O'zbeklar dasturxon yozishni bilarlar,
Qo'llari non tanir, kuyishni bilarlar.
Yonishni bilarlar, o'yishni bilmaslar,
O'lishni bilarlar, so'yishni bilmaslar.

Hisobdan adashib ketsalar ketarlar,
Qarg'alar yelkaga qo'nsalar qo'narlar.
Birovning haqqini yeyishdan qo'rqarlar,
Tuz bergan yuziga urishdan qo'rqarlar.

O'zbeklar yetimning og'zini qon qilmas,
Kechani na kecha, tonglarni tong qilmas,
Qup-quruq nog'ora ustida bong qilmas,
Birovlar qilarlar, o'zlari qilmaslar.

O'zbeklar yurtiga quyoshni chaqirar,
Bulutga baqirar, yomg'irga baqirar,
Tuproqni siypalab bug'doyni chaqirar,
Qiynalsa odammas, xudoyni chaqirar.

O'zbeklar insonni hazrat deb bilarlar,
Yashashni ta'namas, himmat deb bilarlar,
Farzandga suyanib quvvat deb bilarlar,
Muruvvat bilarlar, nafrat bilmaslar.

Mehrga to'ymaslar, diydorga to'ymaslar,
Qishlarga sig'maslar, bahorga to'ymaslar,
Quchoqlab olsalar mehrdan to'ymasalar,
Poklikni qo'yarlar, nopokni qo'ymaslar.

Arvohdan qo'rqarlar, iblisdan qocharlar,
Tobutsoz emaslar, beshiklar yasarlar.
Har ko'klam ko'ngilni qirq kunlab ocharlar,
To'y qilib hammaga sevgilar socharlar.

Kulgini bilarlar, yig'ini bilmaslar,
Kuylashni bilarlar, so'yishni bilmaslar.
O'zbeklar hech qachon tonishni bilmaslar,
Yetishni bilarlar, quvishni bilmaslar.

Quvonchim sig'masdir, ko'z yoshim oqmasdir,
Yaxshilar uyiga yomonlar boqmasdir.
Bu she'rim o'zbekdan boshqaga yoqmasdir,
Yoqmasa yoqmasin, yoqmasa yoqmasdir.

O'zbeklar Xudoga yaqindir, yaqindir,
Chaqilsa chaqindir, umidli yolqindir,
Yer uzra ezgulik eltguvchi to'lgindir,
O'zbeklar endi hech orqaga qaytmaslar.

PIANINO. 1942-YIL

Musiqa muallimi chalishni boshlar,
G'alati tovushlar eshitilar: kar-ram.
Kolxoz klubi yutinar,
Qishloq bevalari yutinar,
Bir chetda sulayib teshilgan to'rva,
Dasturxon yamog'in tishlagan sichqon
Yutinar: – Sho'r-va: sho'r-vam, sho'r-g'am...
Tam-taram-tara-ra-ra...

Qopqog'i ko'tarilgan oyoqlari bor,
Ichida bulbullar chertayapti tor.
Qandaydir ovqatning bug'lari,
Chirsillar yoqimli cho'g'lari.
Go'yo qaynamoqda kattakon qazon.

Tam-taram-tara-ra-ra...

Shipda dumin chaqa ketar ilon,
Zo'rg'a eshikkacha yetolar pashsha.
Oshpichoq o'g'irlab g'ijinar kuchuk,
Yig'lab ho'l bo'lar qotgan tarasha.

Tam-taram-tara-ra-ra...

– A-lam –

– A-lam –

O', bu jahannamning portlashlari-ku,
Gulxandan soqoli, qabog'i o'p-qon –
O'pirar ajalning berahm urug'i –
O-na-jon!

Bevalar kaptarday parilar birdan,
Bolalar toychoqday tashlanar – olg'a.
Bir sakrab dalaga tushadi o'roq,
Bir sapchib falakka yetadi bolg'a:

Tam-taram-tara-ra-ra...

Musiqa muallimi chalar pianinodan,
Askarlar saf tortib ketar uzoqqa,
Qasoslar tizilib ketar uzoqqa,
Hayqirib Betxoven, Gaydnlar chiqar,
Hoji Abdulaziz va yana...

Tam-taram-tara-ra-ra...

Ertaga ishon, ishon...

NIYAT

O'tgan zamonlarda qoldi alamlar,
Sabr zanjirlarin faryodi yitdi.

Ko'ngil ichra ko'ngil topdi odamlar,
Istiqlol umidlar mag'ziga yetdi.
Yorug'lik baxsh etdi, o, ulug' damlar.

Ra'nolar, jambillar faslidan darak,
Azizlik rutbasi kamolot toti.
Endi-da odamdek yashasak kerak,
Mazasi yurakda baxtning navvotin.
Shubhasiz, Humoday yoyib qanotin
Tiniq oqshomlarda kulgay kelajak.

Ukpar ufqlarni yog'dular surar,
Sirlar ochiladi bir-biriga qasd.
Tovushlar toshlarni ko'tarib urar,
Otashga qovurib olar ne-ne past.
Zog'lar soyamizga tumshuqlar urar.

Buyuklik — har qalbning ozod suvrati,
Unga boqsang agar umid ko'ziday.
Bu ajib vatanda yashash lazzati,
Ilhom parisini quchmoq keziday.
Rost-durust bobolar aytgan hikmati.

Do'stlar nag'masi-yu dushman shiviri
Uzzukun yomg'irday yog'ar ba'zida.
Ma'rifat — bu boqiy tiriklik siri,
Mijg'ov xatarlarni qirqar izidan...
Kelsa bahor kelsin, qursin izg'irin.

Axir kunlar shirin bulbul so'ziday,
Notinch o'ylar o'chsin, yangrasin bayot.
Gullar qadam qo'ysin, dashtlarga yalang,
Injilmay shodliklar ulashsin hayot.
Zavqimiz piyola, qo'lma-qo'l, qarang.

Doim panohida asrasin Tangrim,
Abad yaqin qilsin pok niyatlarga.
Nozik hislar jo'shsin kayfiyatlarda...

ESDALIK

Menga dedilar bolaligimda
Faqat to'g'riga qadam tashla qayrilmay sira,
O'zlari butun xalqlarni kalaka qildilar,
Qiy nadilar nozik tuyg'ularni toptab.
Men cho'qqisoqol cholg'a hamd aytdim ertalab,
kun bo'yi, kechqurun...
Men to'g'riga qaradim ko'zimni ochmay,
Ko'ndim mag'zava hayotning mag'zavasiga.

Odamlar ko'zlarini ochib yo ochmay
To'da-to'da to'g'riga yurib,
Siqilmadilar, yiqilmadilar,
Yashaganday bo'lib o'tdilar —
Yo'lda qalbi fig'onlarni pinhona surib qo'y dilar,

Kimlarnidir tamosha uchun bo'g'dilar, bosdilar.

To'g'riga qadam tashladim boshimni ko'tarmay,

Dardimni bilmadilar, fikrimni uqmadilar –

Allaqachon to'g'riga boqmayotganimni

Sezmadilar ertangi kun kushandalari.

Dunyoda odamlar to'rt tomonda birdek sudrali-
shadi bugun,

Dunyoda erkinlik va huquq chorrahasida ayol

ayolga, erkak erkakga havasmand bo'lgani qiziq.

Aqlga zid bo'lsa ham, buzuq hissiyot gumashtalari

kundan kunga ahil, kundan kunga pashshaday

serurug'. Pashsha odamlar suv bosganday, yomg'ir

yog'anday. Vaholanki, yupqalashar osmon,

cho'llar va sahrolar pishqirar.

O'zingni ehtiyot qil, bolam, jahonga aralashishdan
oldin,

Quyoshga toblat raftoringni, adabla, xulqla ma'ri-
fat javohirotlari ila bezan.

Istiqlol bergan urug'larni ko'kartir, o'zligingdan
qaytma, so'zingdan qaytma.

O'zoringni ko'rmay, shon-shuhratga burkan Inson
degan oliy darajalarda.

Men esa...

Ko'nglimni ko'nglingga bo'shatayapman, bolam.

UZUN JUMLA

Hasratimni elakdan o'tkazib, oh-vohlashib tabassumga
loyiq zarrani –

Umrim daraxtini egib, shoxlari orasidagi

Arrani,

Boshim osmonga teggan payti zavq-u shavqim paydo
qilgan

Sayyorani,

Xasta otamni yelkasiga opichlab Makkaga oborolmagan
Noshud umidni,

Ruhiga monand sevgilisini

Qarg'aga berib qo'ygan yigitni

Qizilqumda daf etsam...

Samarqandning Zomini guzaridan «Kaptarxona»gacha

Motridlik qog'ozchi qog'ozlarini tarqatsam,

To'g'ral-u Mashrabni yod bilganlarga

Biting desam ishq baytlarini...

Rafiqamning oq sochlarini qoraytirsam bitta silashda,
(U unutsa she'rbozligimni)

Ikkimiz ham yigirma birda – Registonda uchrashsak
tag'in...

O'tqizgancha uchar gilamga aylantirsam yetti olamni...

Hech kim meni laqillatmasa

Va hech kimdan qolmasa ko'nglim,

Ustozlarim mard tursa adl,
Do'stlarimdan ketmasa putur..

Huvillayman nosoz, quloq tutaman,
Buyruqlar beradi kimdir ichimda,
Nachora,
Bu uzun jumlani muhabbat bilan
chizib yuboraman, shunisi ma'qul.
Bag'rimga qayroqlar osib ko'rgayman.
Endi o'zimmimas, qayroqni o'rtayman...

KIRISH

Monmart'rda Apollinerning piyozday archilgan
ko'krak qafasi g'iychillaydi: Janoblar, aqchaga al-
mashtirmang vujudni.

«Bu Mona Liza – kecha suvratdan tushib muzey-
dagi soqchini o'pgan yo, aksincha, telba soqchi ona
deb tiz cho'kib haykalga aylandi shu ko'yi»

Bu «Figaro»da ketmagan xabar –

«Ey siz qog'ozxo'rlar, Alisher o'ldi,

Huvillagan Hirotda G'irotda minadigan odam qolmadi»
Bu Afg'on shamoli 400 yildan buyon aytadi, ammo
Tilini tadqiqot qilmagan hech kim.

«Qizaloqni qidirayapmiz, 100 xilda so'zlaydi, bir
o'zi – barchamiz»

Uni Ispaniyada o'g'irlashadi,

Somalida dengiz qaroqchilari bir so'zga kelti-

rishar tafakkurini. «Pulni choʻz»

«Yordam bering unga»

«Bu qizcha yomgʻirday shovullardi-ku...»

Men seni juda-juda qizgʻanaman mehr, (Rostmikan)

Men seni izgʻirinday qoʻrqita suyaman, (Bunisi ortiqcha)

Men seni boʻronga biroz oʻxshataman. (Afsona)

Osmon moviylashdi,

Gʻirotni yetaklar yolqin chakalagida,

Kimlar: Navoiy, Apolliner va qizcha.

Soqchi anvoyi gullar-la andarmon,

Mona Liza koʻzada koʻzi. Qisqasi ...

«Janoblar va xonimlar, halol soʻzlarda gaplashaylik...»

BOMBAY AKSIOMASI

Bom-bey. Bim. Bom.

«Vazningizni o'lchang». 86 kg.

«200 rupiy». Chol hazin bukchaydi.

Ming'irladi, qanchasi keraksiz narsa...

«Isqirt chob», ming'irladim men ham,

Oriqlar, semizlar, kaltalar, uzunlar,

Mardlar-u galvarslar, lo'ppilar,

Yaxshilar, yomonlar – ko'chalar liq to'la.

Qancha keraksiz narsani supurib tashlar farroshlar.

«Men sizni o'rganib chiqdim».

Vafodor og'ayning iljayar,

Ko'rsatkich barmog'i undov belgisi:

«Siz rasvo ekansiz...»

Kichkinalashar razil jussam,

Og'zi jim, ko'zi hadikda.

Har bir tomirimda haqoratlanar ruhim,

– La'nati!

Yo'qol, – deb haydayman.

Sho'rlik – za'faron

Yalpayib, pildirar jussam...

Ortidan kuzataman.

Ruhimni o'lchashga qidiraman cholni.

Daraklayman, soyasi yitgan.

Uyga olib qaytaman shaklni o'zim bilan,
Janjallashaman, urishaman – bari befoyda.
Ta'sir etmaydi so'kinishlarim.

Achinaman. Chiqamiz dalaga yonbosh ko'chamiz-
ga,
Oy maydalashib maydalashgan.
Bir fikr tirjayar nogoh ikkimizda...
Olam va odamlar, jami nechchi kg?
Undan qanchasi keraksiz narsa...
Bom-bey... Bim. Bom.

PAM-PAR-EY-RA

Ancha-muncha shiltasi chiqqan qo'shiq naqaroti,
50 yoshimgacha tilimda g'o'ng'illadi.
Pam-par-rey-ra..

Qo'shilib ketmoqda osmonning somoni,
Yulduzlar vijillar, sayyoralar ham.
Kechagina g'adir adirda jononim
Lolalar tergandi isirg'a qilib...
Pam-par-ey-ra...

Aldarko'saning kosasiday fursat,
Tishlari to'kilgan xotiralar chol.
Xachirday egarlab bo'lmadi sabrni,
G'ayratlar shikasta,
Ko'r, kar, shol...
Pam-par-ey-ra...

Ovsiniga uzatganday bolishni,
Tunlar chalauiqu – astari loshday.
Kesakni ivitib ko'krakka surtib,
Yurak yasharsaydi ul qalamqosh-chun...
Pam-par-ey-ra...

Qureylab laylaklar tutdi kuyganni,
Quyoshni ag'natib o'ynatdi koin-ot...
Burkaning,
Suykaning
Ko'p marta, bot-bot..
Yana bot-bot...
Pam-par-ey-ra...

Bir musht tushiring boshga to'satdan,
Guv etgan epkinga jo'r bo'ling ermakka.
Qaysidir bir toqqa esing to'satdan,
Qaysidir buloqqa keling emaklab.
Pam-par-ey-ra...

EZGU RUH XUSUSIDA FIKR

Ajdarhoning boshin uzar oy.
O'lim qornin kesib qo'yar suv.

Qulzumdayo¹

Uzun qizil til

Javrar: – Ruhning xudkushi qo'rquv.

Ruh daydiydi sakkiz azobda

Yerdan nari, osmondan yiroq.

Unutilgan xarob ovloqda

O'stiradi sonsiz ismaloq.

Shoqolsiyrat ochofat xasga

O'lat bilan kirishar oshno.

Qabristonni titib birpasda,

Hamtovoq-la topar osh-u non.

Billur tog'da peshonasi do'ng,

Nafs-u ta'ma xotini ulki-

Tashib yotar kecha-kunduz go'ng

Do'rdoq labda qotib tupugi.

Go'zal qizlar vatani Chiroy

Qamaldadir, bosqinchi ishrat.

Marazlarni to'plab poyma-poy,

Junli tanda yutoqar shahvat.

Uzumzorda mashvarat qurib,

Qadahdadir deb butun jahon,

Qo'yni filga taqqoslab urib

Arjumandni boshlaydi yolg'on.

Kalitlarni tiqib pinjiga

¹ Qulzumdayo – afsonafiy daryo.

Xayru ehson kutar xiyonat.
Shaqovatni solib lunjiga
Xachirlarni qilar tarbiyat.
Boyqushlarni ustoz saylagan
Kaltafahm, nodon, takabbur –
Masrur, garchand harom aylangan
Shubha qilmas yog‘ar deb yomg‘ur.
Kalavaning uchin ushlab ham
Ters-teskari ketar gumrohlik.
Onasini ilg‘ay olsa ham,
Momosidan tongan gustohlik.
Ajdarhoning boshin yamar oy.
O‘lim qornin tikib qo‘yar suv.

Qulzumdaryo

Uzun qizil til
Javrar: – Ruhdir qudratli, mangu.
Ruh yolg‘izdir sakkiz azobda.
Yerdan beri, osmondan nari.
Chegirmaydi aslo hisobdan,
Sanab berar yerning dardlarin.
Balkim, davo qilar zulmatni,
Irkit-sirkit, chirkitlarini
Yo voz kechib yig‘ib obketar
Haqiqatning o‘liklarini.
Yo odamlar uyg‘onib qolar,
Solar o‘zin tinsiz qiynoqqa.
Balki, dunyo to‘lgancha to‘lar
Ruh o‘stirgan ismaloqlarga.

BOBUR

Taxir g'am yutursen,
Zaxil rang yutursen,
Lahmlar kimniki, Bobur?

Bu maydon qonlidir,
Bu larzon onlidir,
Bu o'lim kimniki, Bobur?

Bo'g'zingga pechakmi o'ralgan,
Shullukmi emgakda sas simgan,
Nafratmi oxirgi
Yamladi, Bobur?

O'kirib kelayotir shamshir,
Bo'kirib uchayotir davvot.
Gurzisin sindirar davvor,
Ikkiga bo'linib ketasen –

Zahariddinman der yarming,
Zahiriddinman der porang,
Biri taxt uzra nurposhdir,
Biri go'r izlar oyoqyalang.

Zahr topgan bolam,
Qaydasen, Bobur?!

AHMAD YASSAVIY. XII ASR

I

Ilohim, sen meni tilamchi qilding,
Manglayim arqog'in arg'amchi qilding.
Baxt istab odamdan odamga o'tdim,
Yo'llarim qonimdan sirpanchiq qilding.
Sirpandim, holima maymunlar kuldi,
Senga ko'p yalindim, adashgan bilding.
Karaming o'rniga g'azabing yeldi,
Ko'zimni sel qilding, xandaqlar to'ldi.
Ishqqa yukuntirding, avradi yona,
Qizdan juvon bo'ldi, juvondan ona.
Maxluqni men bilan qarindosh qilding,
Yigitdan it etding, sog'dan devona.
Kuchandim, nafasim yubording uzib,
Qo'shga qo'shib qo'yding, mijig'lab, ezib.
Bolani beshikdan tushirding yerga,
Otani tushirding qop-qora go'rga.
E'tiroz etmadim, alamchi qilding,
Manglayim sharhini aldamchi qilding.
So'roqlab olamdan olamga o'tdim,
Yo'llarim qonimdan sirpanchiq qilding.
Ilohim, sen meni tilamchi qilding!

II

Kech mendan, ko'lankam yig'ishtir, tangri,
Yopishqoq qobug'ning uchdim makriga.

Yerto'lam devorin vahmidan gangib,
Sajdaga yuzlandim
Riyo shahriga.

Fosiq titrog'imdan hamyon shishirdi,
Kazzob qaltirog'im yo'ydi satoga,
O'g'ri qo'shiqlarim qayga pishirdi?
So'zimni joyladi xatti xatoga.
O'tlarga kitobim qiladi nodon,
Telba siyohdonim ayladi soqqa.
Xoin o'z shohini tutib qamadi,
Tojni olib berdi yalangoyoqqa.
Avom shuvoqlari ko'chgan haramda
Raiyat tuzmakdin lof urdi chunon.
Darig'o, Haqkomil bergan olamda
Hayvonga naslini taqadi inson.
Meni pir etadi, qulluqda turdi,
Sirtimdan yupandi, vovaylatoyim,
Xavotir tongida oyni tutatdi,
Elchilar yubordi onam-atoyim.
Kech mendan, ko'lankam yig'ishtir, tangri,
Qobug'im men bilan boshlagan nizo.
Chig'irib chiyirgin, yashamay gangrib,
Yerto'lam fazo et, yerto'lam fazo.

Kech mendan, ko'lankam yig'ishtir, tangri!

SHAYX SHIBLIY VA IT BORASIDA

1

Musichani ko'rdi shayx, musicha uchib ketdi,
Havoga tuxum qo'ydi, tuxumi puchib ketdi.
Bir nola uchib ketdi,
Bir nola uchib ketdi.
Shaqshaqani ko'rdi shayx, shaqshaqa uchib ketdi,
Toshni parmalab ketdi, tumshug'i puchib ketdi.
Bir qonlar oqib ketdi,
Bir onlar oqib ketdi.
O'zini tashladi shayx, o'ziga to'zib keldi,
Qarqunoqni ko'rdi shayx, qarqunoq to'zib keldi.
Suvlarga suvsab ketdi,
Uvlarga uvsab ketdi.
Oyog'ini kesdi shayx, birdan hovriqib ketdi,
Qo'llarini kesdi shayx, juda hovliqib ketdi.
Biyobonga bong ketdi,
Osmonga qo'ton ketdi.

2

Ko'zimni kim tugadi, g'uluv ichra qoldi shayx,
Tilimni kim sog'adi, qo'rquv ichra qoldi shayx.
Haqiqat ohu edi,
O, aziz qayg'u edi.
Tashna itni ko'rdi shayx, suvga boqar edi u,
O'z aksidan hadiksib, qo'rqib qochar edi u.
Itmikanman dedi shayx,

Betmikanman dedi shayx.
Bir qalqitdi boshini, ko'zi tugilib ketdi,
Bir qalqitdi iyagin, tili sog'ilib ketdi.
Xalos bo'ldi qulfdan shayx,
Xalos bo'ldi sulhdan shayx.
Ohista uchib ketdi,
Olisga ko'chib ketdi.

* * *

Sen qodirim, bahodirim,
Ayo ruhim, ayo ruh.
Sen pinhonim, sen zohirim,
Ayo ruhim, ayo ruh.

Sen hech nedan qo'rqmajaksan,
Yarim uyg'oq uxlajaksan.
Sen rahbarim, sen sarvarim,
Balandparvoz kabutarim.

Menga azob bermajaksan,
Aslo xarob ko'rmajaksan.
Nur yog'arsan, nur yog'arsan,
Zavq ayshiga to'ldirarsan.

Xizimatingni qilay tun-kun,
Sen oqaver urib to'lqin,

Saxovatli, qadoqchimsan,
Muruvvatli sadoqchimsan.

Sen qodirim, bahodirim,
Ham botirim, ham nodirim.
Sen panohim. Sen zohirim,
Ham ibtido, ham oxirim.

Ayo ruhim, ayo ruh,
Sufla, sufla, suf-suf.
Ayo ruhim, ayo ruh,
Sufla, sufla, suf-suf...

AFROSIYOB

N.Komilovga

Xurliqo goh badburush lahzalar o'tib bitar,
Momo tilla supurgi, kumush kul olib o'tar.
Kelinchak charx tortadi, falak yo'llari tutar,
Kulohi yog'dulanib, yuz qalandarlar ketar.
Barisi bir-bir o'tar.

Rangi yo'q yelpig'ichning nafasi yugurar zuv,
Kaftida o't ezg'ilab qarsillatadi suluv.
Yumaloq supaga oq xizmatkor sepadi suv,
Oshufta gulzor aro kezinar qahrabo «uvv».
Barisi bir-bir o'tar.

Sollanib, orolanib to'rt beka surmadonli,
Lol qoldirar yalla aytib, mehmoni ko'p ayvonli.
Betakror bazmlarda sahna etib osmonni,
Quyosh hamon chu-chulaydi inqillagan karvonni.
Barisi bir-bir o'tar.

Chirimog'din oldinroq nish uradi har danak,
Qaytadan jism-u jonga to'lib qoladi g'ovak.
Og'irlashib bir onda botar yengil po'panak,
Daqiqa sabr aylab, so'ng ketadi bedarak.
Barisi bir-bir o'tar.

Yashirib pinhon etar marvaridni chig'anoq,
Ummon esa kambag'alman deb kuyguvchi qichqiriq.
G'avvos to bor qilguncha hech qayda yonmas chiroq,
Ana, bir yalt etdi-yu qoldirdi noz-u firoq.
Barisi bir-bir o'tar.

Serg'alva haram ichra kanizlar ko'zguda ko'z,
Bitta ko'z, ming bitta ko'z, yoyilib ketguvchi bo'z.
Tirnadi, yara qildi, shifo deb qo'ymishmi tuz?
Silkidi, silkindi-yu, vo tag'in top-toza bo'z,
Barisi bir-bir o'tar.

Hurliqo, goh badburush lahzalar ro'yi noyob,
Vayrona etar gohi, gohida etar bunyod.
Mahliyolik jovidon, tiriklik bo'lsa savob,
Bu olam tugallanmas, shohidi Afrosiyob.
Barisi bir-bir o'tar.

FALFASA

Mirtemirni eslab

Zamin, qorning to'yarmidi sening,
Ko'zim to'yarmidi mening tuproqqa?..
Yulib olayapman gullarni –
Quyoshning tilida gapirganlarni:

«Mana u, o, qanday mayin,
Men qalbimni kesardim shunday.
Mayin-mayin, oh, qanday mayin.
O'lmoq – lazzat!
Tug'ilmoq – lazzat!»

Sen esa yig'layapsan, majnuntol,
Yig'lama, biz uzun yashadik.
O'ranib gramga, millimetrga,
Biz million lahzani,
Million sukutni
Saqlaymiz mavjlanib shu Yerd.
Zamin, qorning to'yarmidi sening,
Mening ko'zim to'yarmidi tuproqqa?
– Otello, bu sening xotining emas!
– Gamlet, bu sening otang emas, yo'q!
– Gomer, bu sening ko'zlaring emas!

Bu – boychechak!
Bu – chinnigul!
Bu – yer!

«Mana u, o, qanday mayin,
Men qalbimni kesardim shunday.
Mayin-mayin, oh, qanday mayin.
O'lmoq – lazzat!
Tug'ilmoq – lazzat!»

Tug'ilgan bo'lsam men o'zga o'rniga,
Sen o'lgan bo'lsang gar begona uchun,
Men – go'dak, tikan bo'lay ilon inida,
Sen – keksa, qopqoq bo'l ilon iniga.
Axir sening boshingday qalqiydi-ku yer.
Axir mening boshimday qalqadi-ku yer.
Yurakka kiprikni botirib,
Yozilar eng so'nggi go'zal she'r:

«Mana u, o, qanday mayin,
Men qalbimni kesardim shunday.
Mayin-mayin, oh, qanday mayin.
O'lmoq – lazzat!
Tug'ilmoq – lazzat!»

SHAM HAQIDA SO‘Z

Men seni tushunmayman, sham.

Yonursan.

Tonib yonursan.

Xo‘mrayar qorong‘u lunjin shishirib,

Puflasa, o‘chursan,

Tonib o‘chursan –

Bir shirin, bir shirin, naqadar shirin.

Sen ne o‘zi, balki, sirlar ulfati,

Jujuq tilli roviy, karomatsohib.

Xira yog‘du bilan isir tiynatim,

Qonimga tashnalab go‘yo asotir.

Ko‘zimdan o‘tadi rangin suratlar:

Dashti yobon, chol, qo‘lida ko‘za.

Ichida bo‘za yo‘q, kaltakesaklar

Baqrayib yotibdi, ko‘zi firuza.

Chol umrin in‘ikos bo‘laklarimi,

Toqati ramzimi yo dili shakli?

Javob ber, nima bu, na ma‘ni, hikmat?

Qatu mag‘ziga hech yetmadi aqlim.

Yana surat o‘tar ko‘zim oldidan:

Toshbaqa ustida uxlagan odam

Ortidan imillar qoqsuyak bo‘ri,

Tishlari to‘kilgan, jag‘i osilgan.

Qachon yetar ekan bo'ri odamga?
Magar uyg'onsami, uyqusin qoqib.
Magar bu toshbaqa aylansa otga.
Jag'lari tortilib, tishlari chiqib,
Birga yetarmilar to'kis hayotga?

Shundaymikin yo...
Ammo chala-yarim umr ketidan
Chala-yarim ajal hanuz imillar,
Qorasin ko'rsatmas hamon manzillar...
O, nechun?
Yana surat paydo bo'lar, qarayman:
Kumush g'or og'zida vovullar oqqush.
Bir ayol telbavor qo'lida suyak,
Qarg'inar: yig'laysan nega, padarkush?

Oqqush talpinadi suyakka tomon,
Ammo ayol bermas, o'qir duosin:
– Zor bo'gur, xor bo'gur nomsiz, benishon,
Zurriyoding shu suyak bo'lsa, chirisin.
Hayhot, xotirmi padarul-abad,
Tarixmi bu kampir, qotilmi zamon?

Titradim, qo'l-oyoq tushdi larzaga,
Uvalanib ketdi vujudim go'yo.
Sen esa tag'in surat chizasan,
Boqaman: dunyo –

Nahri-yu bahri-yu nahrlari-la,
Mehr-u shafqat-u qahrlari-la,
Begona, qadrdon va dushman
Bezigan qahat-u urushdan.

O, sham.
Yonib bo'lding, chog'i, qaltirayapsan,
So'nggi istehzong-la yorishmakda tong.
Munavvar va dog'li,
Umid va hasratli tong...

ARMON. JALOLIDDIN RUMIY

1

Toatimni, toqatimni tasnifladim,
Tugunlari mingga bo'ldi taram-taram,
G'uvillagan cho'ntagimda qo'lim qoldi,
Teshik kulcha kabi bag'rim tishlam-tishlam.

Sevgilimning xotirida ko'zim qoldi,
Kuya kabi kuyaladi xotirlarim.
Ko'chalarda devonavor so'zim qoldi,
Ahvolimdan uyaldilar shogirdlarim...

Men astoydil aytganimda kuz kelibdi,
Boshqa yoqqa yo'l solibdi chechaklarim.
Chig'iriqqa yurak bilan tosh tushibdi,
Qichqiriqqa liq to'libdi ko'kraklarim.

Ko'kragimda gunoh nima chaplanibdi
Armonlarning loylariga, gillariga.
Xurosondan Ko'nyo qadar aldanibdi
Keng dunyoning mayda-chuyda yillariga.

Onaginam, sog'inaman, so'kilaman,
Jon teshilar, nina urib tikaversam.
To'g'rigina yurolmayman, qoqilaman.
Arpa unar, bug'doy sepib ekaversam.

Alalxusus, tushlarimda buraladi,
Turnalarning bo'yinlari ajabtovur.
Momiq ohang qabog'imga taraladi,
Diqqatimga uriladi shivir-shovur.

Yaxshi-yomon kun ko'rsin, hech qiynalmasin,
Chala-chulpa baxt ko'rmasin bu joylarda.
O'n besh kunlik oylar ila quchog'imda
Vatanimga borib olay voylamasdan...

2

Saranjomga kirmaydi hech bor-u shudim,
Yuragimda saqlaganim yutqazibman.
Ko'rsatibman gupillagan o'timni men,
Aljirabman, yoshligimni o'tkazibman.

Xiyobonga borolmayman, hadikdaman,
Daraxtlarga soch hidlatgan sevgilimdan.

Haliyam men ochilmagan eshikdaman,
Achinaman taqdirimga dil-dilimdan...

Izlarimni supurgali shamol shoshar,
Quvar go'yo bu shaharning chumchuqlari,
Iskab kelar, istab kelar, bilolmayman,
Tunning sariq, oriq-semiz kuchuklari...

O'takamda huvillaydi qo'rqvim ko'p,
Tisarilib orqa-oldin jovdirayman.
Yashay desam sog'-salomat, uquvim yo'q,
Dovdirayman, hud-behuda dovdirayman.

Garchi men ham o'tkinchiman, eskirurman,
Lahadiga kirgan borki chiqolmaydir.
Avliyo-yu anbiyolar aytgan bilan,
Odamzoddan kelgan ofat yiqilmaydir.

Shoirligim nima mening, hangomalik,
Taftishim-la umr xolis o'tkazibman.
Tangrim faqat qilmaydilar begonalik,
Zero, yurak deganlarin yutqazibman...

Izladim, izladim, o, benihoya,
 Shashtim dashtga yetdi,
 Senga yetmadi.
 Nurlanib, qizinib oqardi soya,
 Umrin vaqtga yetdi,
 Senga yetmadi.
 Uchar ot egarlab chaqnagan dildor,
 Tag'in yutolmadi seni tubsiz kom.
 Samoviy giryonning zarrin changidan
 Yasading paymona suvi uchun jom.
 Jon desang berardim,
 Qon desang tomir,
 Faqat bu ochlarga tashlagin urvoq.
 Faqat tashnalarga to'kib o't yomg'ir.
 Faqat sho'rliklarga tashlagin nigoh,
 Izladim, izladim, o, benihoya,
 Tug'yon ummon bo'ldi,
 Seni topmadi.
 Talqonday sochildi tap-tarang qoya,
 Armon go'rbon bo'ldi,
 Seni topmadi.
 Kunlar mozoridir nimyog'du dala,
 Tuproqdan evrilib, suvlarga tushgan,
 Jussasi yam-yashil,
 Qo'llari lola –
 Ko'm-ko'k qiz, nima u ko'ksingda jo'shgan?

Boshimni ko'ksingga olsayding, qani.
Sochingga talatib qo'ysayding edi.
Bir ho'plam qon bo'lib qolsaydi tanim,
Yuzingni, oh, chayib olsayding edi.
Izladim, izladim, o, benihoya,
Unim tundan o'tdi,
Senga yetmadi.
Bahaybat qush bo'ldi kechagi moya,
Sasim yeldan o'tdi,
Senga yetmadi.
Umidim sulaydi, quyoshga boqdim,
Bo'yninga kishanlar sol deb so'radim.
Elt dedim dildorga, yoshlarim oqdi,
Jonimni sug'urib ol deb so'radim.
Umidim yiqildi, hilolga aytdim,
Qahrabo zahringdan bergin, ichayin.
Elt dedim ko'k qizga, o'zimdan qaytdim,
Tanam kiyim bo'lsa, qiyib yechayin.
Izladim, izladim, o, benihoya,
Qay bir tosh ichida
Dilband-u dilbar.
Boshimni toshlarga urib bo'zlayman:
Yoriltosh! Topayin
Dilband-u dilbar!

QALANDAR

Izdihom chogʻida
Maydonga gurs-gurs,
Sallasi osilgan, belida kajoʻl,
Papogʻiga qand-qurs solgan qalandar
Tashrif buyurar:

– Xaloyiq!
Imon musofir,
Inson darbadar.

Miyigʻida kular,
Yuzida yosh yurar,
Kaftini ishqalar, qizaradi olov.
Mis choynak chiqarar,
Ichiga tuz solar,
Puflaydi, shaqarlar...

Xaloyiq!
Toʻrt fasl xabar,
Vatanga safar,

Xaloyiq savdogar, guppa-gum, guppa-gum,
Bor narsa zumda zum, yoʻq narsa zumda zum.
Xohlasang yashil kun, xohlasang sariq kun.

Bormi qunt?

Qalandar bosh chayqar,
Yuzida choʻgʻ yurar,
Duoga qoʻl choʻzar, kuf-u suv: suf-u suf,

Xaloyiq – maxov turk!

Suf – suff – sufff...

Va sayoq bulutni chaqirib tushirar,
Yonboshlar, barakot – alvido, alvido.
Samumlar pishqirar, tish qirar, hayqirar:

– Muddao – iddaho.

Muddao – iddaho.

Maxovlar o'kirar bo'kirar, to qazo,
Hizoda sazo bor,
Bilishmas. Qalandar –
Sahroda munkigan bulutdan tushadir,
Yut, ey qum!

Dil – ko'r,

Jon – dard.

Qum yutmas,
Kishanday sabolar esadir,
Qayrilib, qayrilib o'ralar bo'g'ziga.
Quyoshga qaraydi uzrli, sezadi,
Toshlari g'ajarlar ko'zining.

O'TINCH

Shoberdi baxshiga

To'lishgan bo'stonlar tugadi hosil,
Boychibor, nihoyat, bahorga vosil,
Tog'larning quvnashin tuydi-yu, g'ofil,
O, mumdek yumshadik do'mbira-do'mbir,
Torlaring tortilsin, zorlatib kuldir.

Alpomish sovuti – g‘aroyib osmon,
Barchinning qoshlari – tortilgan kamon,
Qoshini yoy qilib tortdi qay tomon,
Ayt, senga tegdimi do‘mbira-do‘mbir?
Torlaring tortilsin, zorlatib kuldir.

Qo‘limdan ushladi, o, kim bu – Chambil,
Tutqazdi qo‘limga kattakon zambil,
Uzilgan kiprigi bunchalar ham zil,
Ayt, qanday ko‘tarding do‘mbira-do‘mbir?
Torlaring tortilsin, zorlatib kuldir.

Bag‘rimga o‘t qalab tutatgan ipak,
Qizgina qasd aylab otdimi kesak,
Mo‘ljali aniqmi, chil-chilmi yurak?
O, jonim qadoqla, do‘mbira-do‘mbir,
Torlaring tortilsin, zorlatib kuldir.

– Ey bolam, – deding sen, – ey bolam, – deding,
Qaddingni ko‘tarding, osmon engashdi,
Bo‘yningga ming bir soch quyosh tarmashdi,
Tun senga ergashdi, kunduz ergashdi.

– Ey bolam, haqqingni berarman, – deding.

BAHROM VA DILOROM

Olim Muslihiddin Mubiddinovga

I

Dil dedi: – Keturman, ketmagim oson,
Azobdan qutulmoq yo‘li go‘riston.
Dilorom Bahromning suyagin yig‘ib,
Jo etar ko‘ksida sag‘ana, makon...

II

Jon dedi: – Gar ketsang, kuzatguvchi oy,
Xonani berkitib suvab qo‘yar loy.
Zanjir yasab oldi umurtqasidan,
Seni qul qiladi Bahrom, hoynahoy.

III

Dil dedi: – Tan erur bamisli ummon,
Qillarim to‘lg‘onib soladi tug‘yon.

Boshimiz kosasin bir kema etib,
Sayrga chiqurmiz men va Dilorom.

IV

Jon dedi: – Qayga ham borarding oqib,
Gar qolsa uygʻonib sher boʻlib raqib?
Barcha barmoqlarin sindirib tashlab,
Jagʻin qisirlatsa, oʻt qoʻysa yoqib.

V

Dil dedi: – Chuqurdir ikkita kovak,
Boʻladi ichida pisinib olsak.
Bizni kechiradi, aylaydi tavof,
Tishlarni arralab maqbara etsak.

VI

Jon dedi: – Goʻriston tirab bir onda,
Lashkar boʻlib qolsa bari Bahromga.
Seni tutsalar-u zanjirband qilib
Olib ketsalar gar otash tomonga.

VII

Dil dedi: – Parchalab-parchalab oʻydim,
Neki boʻlgan boʻlsa taqdirga yoʻydim.
Otashga kelibman yozugʻim bilan:
«Men uning sogʻinchin shu zahot tuydim».

VIII

Dil dedi: – Keturman, ketmagim oson,
Jon dedi: – Gar ketsang, kuzatguvchi oy...

CHUNONAM

Chunonam ko'nglimiz sizga bandlashdi,
Jononam, ishqimg'a qand aralashdi,
Tamkin etmang, taskin as'hobin tuzing,
Bodano'shmasmiz, vale
Siz boda suzing...

Piyola aylanguncha kajraftor o'tsun,
Sizdan alanga-yu bizdan zor o'tsun,
Boyazid Bistomiy o'tgan nolada
Ikkimiz shunchaki
Ikki boladay...

So'z aytmang, qayrilmang, qon ketgunicha,
Qalb ko'ringuncha xush nafas aylang.
Jandamiz sidrilib yerga ketguncha
Ruhim ovozigga shirin sas aylang.

Chunonam, jononam, sizga payvandman,
Ishqparastman, mardumi Samarqandman,
Na jamman, na kamman, na-da butunman,

Na mavjud, na nobud, na-da tutqunman.
Vale siz uchunman –
Yolgʻiz siz uchunman –
Hargiz siz uchunman, har dam siz uchunman.

Chunonam, chunonam, dil tiyralashdi.

* * *

A.S. E.Sh. ga

Ey doʻst, qanday qilib koʻnglingni olay,
Ne etsam, guldurak senga yalingay
Va sening tegrangda yurar aylona –
Yuragim ustida qoʻlim sayrona,
Ey doʻst, ishqingdaman masrur.

Ne etsam, togʻ ochar shundoq oʻzini,
Men kirib sen uchun obchiqolsam qoʻr.
Chordona oʻtirsam sen bilan birga,
Sen bilan boʻlishsam muhabbat, shuur,
Ey doʻst, ishqingdaman masrur.

Girdikapalakman, sendan soʻrorim:
Qoʻshilib kapalak misoli aylan.
Ey doʻst, qanday qilsam, koʻnglingni olsam,
Koʻnglingga munosib qaysi bir gulshan?
Ey doʻst, ishqingdaman masrur.

Shunday bir shalola havodan tushsaydi,
Lab ochsak sabodan, gul-lola tushsaydi,
Olovni qavigan qiz-bola tushsaydi,
Tiqilinch g'urbatda pok nola tushsaydi,
Sen bilan birma-bir shod ulfat tushsaydik,
Ishqimiz o'rtada parvona tushsaydi.

Ey do'st, ishqingdaman masrur.
Qani u, qani u o'sha gul, chambil,
Qani u, qani u o'sha susambil,
U bilan to'shakda yotgan qayg'ular?
Ey do'st, ishqingdaman masrur.

* * *

Sirli bandargohda quyuq tuman,
Olmos langar,
Billur kema.
Zarbof ko'ylak kiygan darg'a mendirman,
Ey gul, ketasanmi men bilan?

Kumush to'lqinlar tebranishida,
Shaffof manzillarning beshigi ishonch.
Senga kechalari rivoyat aytib,
Tonglari boshingdan sepaman quvonch.

Bo'ron tamog'idan omon chiqamiz,
Sabolar shahriga yetamiz, albat.

Vafo arqonini suvdan tortamiz,
O'ljamiz muhabbat.

Ko'zingni yumgin-u quchog'imga kir,
Yuragim mushkidan bo'ylanar yuzing.
Bu uy atirgulning tushinikidir,
Yop-yorug', chirog'i – bulbulning ko'zi.

Ey gul, ketasanmi men bilan?!

* * *

Osmonni surib qo'y, osmon qolmasin,
Supra qoq, borarga tomon qolmasin,
Shafaq qiyomlari ta'mi qolmasin,
Hech narsa qolmasin.

Qiyo boqma aslo, unut bir yo'la,
Tushma, pastkash dunyo yermas, yerto'la.
Qaytarma bu palid, mijg'ov ashula
Yana ishq haqida...

Mendan esdalikka shu hang-u manglik,
Kaftarlik, mayli-da, ozroq satanglik,
Umrim she'rday o'tar, biroz attanglik,
Ammo shukuh ila
Hamda uh ila...

Osmonni surib qo'y, tegdi jig'imga,
Olov tipirchilar miyig'larimda,
Bezor bo'lmabsanmi qilig'larimdan,
Demak, sen sevgisan,
Haqiqiy sevgi...

* * *

Qarsillab yopilgan
Darvozada shom,
Qizg'ish laganiga
Soladi olma.
Osmon tirqishidan
Boqar Dilorom:
– Tiz cho'k, it kunin
Boshingga solmay.
Iskovuch xavotir
Ariqni chayqar,
Chuchmoma hidlari
Tarqalar uyqash.
Izlaydi, qidirar,
Oxiri payqar,
Yo'q ekan dunyoda
O'zidek dilkash.
Sabrim yelkamni
Chuqurlab uyar,
Kabutar og'zidan
O'g'irlagan don,

Qarg'alar bahorni
Egallab qo'yar.
Nima qilamiz endi
Bu oqshom?!
Qaydan tosh teramiz
Ko'mmakka dilni?
Qandoq qisqaradi
Cho'zinchoq yil ham,
Chidab bo'larmikan
Qirq yorsa qil ham,
Oqib bo'larmikan
O'grilsa sel ham?
Qarsillab yopildi...
Qizg'ish lagandan
Olmalar to'kildi,
Sonsiz yulduzlar.
Qarg'ish urdimikan,
Vahshiy irillab,
Tinsiz vovullaydi
Baxtsiz kunduzlar...

* * *

Subhlar ho'playdi patli havoni,
Bir kun yolg'onchilik qiladi aprel,
Men sening kelishing hech istamayman,
Biroq kel.

Zar ip eshayapti yog'dular toshib,
Zim-ziyo havoncha ezg'ilydi un.
Qavib, taxlab qo'ydi shoyi ko'rpani
Sen uchun tun.

Jarangdor soching ham bo'lar po'pakli,
Tillaqosh topilar ko'k sandig'ida.
Uch gaz bulut kessa bo'lar chimildiq
Visol tog'ida.

Kiprikka ilingan shabnam cho'g'dayin,
Bir kun haqiqatgo'y bo'lmadi aprel.
Men sening kelishing hech istamayman,
Biroq kel.

Anbar in'om etar senga chechaklar,
Tobe mamlakatdir senga xush chaman.
Men esa chimildiqqa kiranman-u,
Tizzangga bosh qo'yib uxlab olaman.

Suronlar chulg'aydi patli havoni,
Bir kun o'zim kabi laqmadir aprel.
Men sening kelishing hech istamayman,
Biroq kel...

* * *

Baliqning tishi-la tilimni tildim,
Yuragim urchuqday uch aylantirdim.
Ko'zimni qiynadim,
Qiynog'im qiziq...
Yayradim.

Indamay ruhimga ergashib oldim,
Devona xayolim g'ilmon sanadim.
Tuf dedim botqoqqa,
Guliston qildim...
Yayradim.

Qaldirg'och loysuvoq qilgan ochunda
Sevgim yo'llariga zor-zor qaradim.
Yoshlarim yal-yali
Taraldi tunda...
Yayradim.

Majnuntol darchasin ochdi, kiritdi,
Yuz bitta qizidan birin tanladim.

Xivich qasrlarda
Barglandim biram...
Yayradim.

Dunyoni tark etdim, hur safar etdim,
Yorimda tuyqus-u bexabar ketdim.
O'n besh kun to'y berdim
Dorulbaqoda...
Yayradim,
Yayradim,
Yayradimaaa!

Seni topib olay desam, yo'llar qaysar,
Asov otday pishqiradi, yurdirmaydi.
Sen suyangan daraxtlarni ko'rsat desam,
Qushlar qaysar, na ariqlar, na sabolar,
Hatto samo bilganini bildirmaydi.
Chuldiraydi bozorlarda goh rayhonlar:
Karbaloqa olib ketgan biyobonlar
Yo Laylini adashtirgan shum ohular
Go'zal yoring lablarini talashurlar.
Urgutimdan burgut qochgan allaqayga,
Toshkentimda lochin so'rsam, topilmaydi.
Qanday so'ray qaydaliging qarg'alardan?
Tumshuqlari yer sudraydi, ochilmaydi.
Nima qilay, qandoq qilay, to'linoyim,

Kimlar olib ketdi mendan ul chiroyni?
Shuncha yulduz ko'r bo'lganmi, hech aytmaydi.
Hammayoqni tun yutganmi, kech qaytmaydi.
Surishtirib dom-daraging topolmadim,
Mozorlarda atirgullar bilmadilar,
Qumursqalar tizilishib, tizildilar,
Ammo biror imloda ham yozmadilar.
Keragimsan, karmi bular, jonajonim,
Bo'g'ilaman, nafasim ham muzlagandek.
Mizg'iy desam, rashk-u itob o'chakishar,
Mensiz seni butun dunyo izlagandek.

* * *

Jala quydi, toshlar yumshab yorildilar,
Kamalaklar sakrab chiqib urildilar,
O't-o'lanlar yer ustiga surildilar,
Irmoqlarda g'ala-g'ovur, mashmashalar,
O'zga olam kelinlari cho'mildilar.
Tepalarda arg'umoqlar irg'ishlaydi
Tuyoqlarin urmoqchiday koinotga.
Ming-ming yigit tomga chiqib tebranadi,
«Qo'llarimiz alishtiring juft qanotga,
O'zga olam kelinlari cho'milmoqda...»
Buloqlarning og'zi tinmas sevaman deb,
Menam aytay, ruhim mendan ajralmoqda
O'z o'yimga – falaklarga ketaman deb.
Jala quyar, daryolarda vasvasalar,

G'ulg'ulaga sinoatlar ko'miladi.
Iblisni ham qon qaqshatgan raqqosalar,
O'zga olam kelinlari cho'miladi.
Ishqim mening, xudoyimdan omonatim,
Shayx San'onday safarlarga boramizmi?
A'molimni sovurmoqda xiyonatim,
O'zga olam kelinlarin ko'ramizmi?!
Jala quydi...

* * *

Ninachi qanotin hijob qilsaydi,
Qil-ko'prik yo'l topib bera bilsaydi,
G'am cheksak, Binafsha ovuntirsaydi,
To'l-g'o-na, to'l-g'o-na.

Jon
Berar edik.

Seni men ko'zimga solib tursaydim,
Faqat yosh oqqanda aksing ko'rsaydim,
Yurakdan yurakka o'tib tursaydik,
To'l-g'o-na, to'l-g'o-na

Jon
Berar edik.

Qaldirg'och ikkimiz olib ketsaydi,
Dunyodan-da yiroq yerga eltsaydi,
So'ng sevib o'lmoqdin saboq o'tsaydi,

To'l-g'o-na, to'l-g'o-na

Jon

Berar edik.

Yo Semurg' otadek tarbiyalasaydi,

Muhabbat nahrida siypalasaydi,

Qanoti ostida uyalasaydik,

To'l-g'o-na-, to'l-g'o-na

Jon

Berar edik.

* * *

X.ga

Hech kim suygan emas meni senchalik,

Qaqnus tumshug'ida yongan alanga.

Azizam, azizam, g'amgin azizam,

Saodat olmoqqa yeturmi tangam?

Zaxob yutib ketgan

Oluchcha bargi,

Temir dubulg'ada o'sgan chinnigul.

Notinch iztirobim va sog'inchlarim

Sensiz etmakdaman yolg'iz tanovul.

Hamal qafasida harir, g'aroyib

Zindon topib berar kofar hayajon.

Bo'yoqlar yaralgan simiy hovuzda

Qunishib, junjika sertalvasa jon.

Hech kim sevgan emas meni senchalik,

Hech kim bo'loilmagan senday fido tan.

Dengizni sapchitib otgan qiyqiriq
Go'yo sen,
Dengizday taajjublanaman.
Og'ir langar bo'lib qo'llarim cho'kar
Tubsiz quchog'ingga karaxt, beozor,
Hayronman,
Uzuring yutgan nahanglar
Seni qurshayotir ishorangga zor.
Hech kim suygan emas meni senchalik,
Hech kim suygan emas meni yurakdan.
Hech kim to'kilmagan sendek elanib,
Hech kim to'kilmagan sendek elakdan.
Na taqdir bituvchi,
Na qattol raqib
Bermagan saodat olmoqqa tanga.
Hech kim yondirmagan meni senchalik,
Qaqnus tumshug'ida yongan alanga.

Hech kim suygan emas meni senchalik...

* * *

Sen baxtli quldorsan, Osima!

Men toat.

Sen afro'z.

Yilqilar sapchiydi, so'qir, beovoz,

Gumbazda yalov bor, go'zal chavandoz.

Sen chavandozsan, Osima!

Men yalovbardor.

Qo'rg'on bor sabil o'qchilari bilan,
Kamonchi soqchilar – yashin va g'azab.
Yilqilar kishnaydi – mening yillarim,
Men qulman.
Sen xoja.

Darvoza yorilar, qo'rg'on meniki
Barcha fuqarosi, tozisi bilan.
Chavandoz bergusi taqdiriga tan,
Sen fath etilgan qo'rg'on.
Men to'fon.

... Yilqilar sapchiydi tag'in beoovoz,
To'fonga g'arq bo'lar shahar serfaryod.
Aqlini yo'qotgan shiddat ko'pirar,
Men daryo,
Sen har yon...

Bari tinchlanadi. Osuda. Jimjit,
(Hamma vaqt, har doim shunday bo'lsaydi.)
Sochingdan to'r to'qib tashlaysan miskin,
«Tilla baliqchalar, zora, kelsaydi».

* * *

Istardim,
Falakning qabog'i bo'lsa
Va qaboq ichida bo'lsa chimildiq.
Atrofim sabuhiy mushklarga to'lsa,
Ham sen kutsang meni
Dilintiq.

Istardim

Yulduzlar chirog'im bo'lsa,
Zulmat kechalarin kechsam adog'in.
Bir ajab, sehrli chorbog'im bo'lsa
Va sen yolg'iz bo'lsang
Azobim.

Istardim

Ko'nglimni uloqtirsam-u
Bu yovuz olamga...
Yurak ustiga
Seni o'ltirg'izsam,
Termilsam, termilsaammm...

Istardim,

Va lekin oyog'im botgan,
Hayot bo'g'ib qo'ygan giribonimdan.
Bu yog'i yoshim ham o'ttizga ketgan,
Bu yog'i umid yo'q qattiq jonimdan.

Istardim...

BIZ HAM...

Biz ham yayraylik degandik, shekilli –
Har kurtak ochilsa
Dudoq, aslida.

Har bog'-u, har chaman
Quchoq, aslida,
Intiqmiz parivash,
Xush ko'ngillarga –
– sokinmiz –

Biz ham yayraylik degandik, shekilli –
To'dalab hilolning tabassumini –
Mast-u alastlarday, sohir yalloday.
To'polon ko'tarib sut mavsumida
Na aqli butunmiz, na hush a'loday...
– Xafamiz –

Biz ham yayraylik degandik, shekilli –
Halloslab, ter bosib
Kinli istaklar,
O'-ho', bizgacha-da
Yetib keldilar.
– O'zdilar...
– Rozimiz –

Biz ham yayraylik degandik, shekilli –

HOLATLAR

1

Chidolmay qoldim men firog'ingizga,
Kaftingiz chizig'i ismim haqdami?
Anduh o'rar faqat, tirnog'ingizga
Ko'chgan rasmim sekin qoraymoqdami?

Nahot, mushkul bo'lsa meni qutqarmoq?
Parmalar bardoshim ayriliq vaqti.
Bera olmasangiz qalbdan bir kushod,
Yo'llashni to'xtating jaf o'kulfatin.

2

Meni eslamaysiz, chog'i, butunlay,
Tentirab qoldim men gumroh ko'chada.
Mezonday sargashta, aynan kukunday
Tarqab ketayapman yopiq darchadan.

Sizga bu ko'chaning yo'qdir qizig'i,
Na boshi-oxiri, taqdiri gir-gir.
Yirtilgan nomaday oyning yarmisi,
Fazo kapgirida pirpirak zir-zir.

Sezaman, intiqsiz o'zga kimsaga,
Tengingiz savlatli, norg'ul pahlavon.

Lekin u men kabi she'r aytolmaydi,
Men kabi sevolmas sizni hech qachon.

Shu karaxt ko'chaning qo'zg'ir g'azabi,
Undan chekkaroqqa chiqaman asta.
Suv so'rab yolborar, (siz-chi, u bilan)
Darchaning yonida hazin guldasta.

3

Darvoqe, ichim kuydi, turdim, qaradim,
Oh, guhar choyshabda bir bo'lak yog'du.
Sizning ahvolingiz titrab so'radim,
Aytmadi ufqqa suykalgan ohu.

Yulduz titib yurgich xayol oqshomi
Gunoh qo'shib qo'yar musichaga ham.
Menga yetib kelmas dashnomlaringiz,
Chunki sizni asti ko'rmadim baham...

Baxt qushim kalxatga aylanib bo'lgan,
Qo'rqinchli kezinar atrofimda goh.
Bizni o'n sakkiz yil ayirib qo'ygan,
O'n sakkiz ming farsah, men yiqilar choh.

Yoqamni ko'tarib olganman, qo'lim
Cho'ntakda pitirlar, shu yoshda dalli.
Ne tadbir hol so'rab kelsa ham o'lim,

Men Abduvali.

Filjumla, bu gaplar sizga kerakmas,
Azizingiz bordir. Baxtiyor siz, u,
Siz haqda gaplashgim kelar, muk etmas
Ufq sag'riniga yopishgan ohu.

4

Oq-qora bulutdan iboratdirman,
Yuzib chiqayapman sovuq osmonga.
Cho'kkan imoratman, butkul g'oratman,
Ayting, tinchlik bormi sizlar tomonda?..

Kecha jala bo'lib yog'dim, shekilli,
Keyin o'qib chiqdim, yoqmadi sira.
Sharshara ostida o'n yetti yoshli
Qizga pana bo'ldi zim-ziyo ingrab...

Keyin u surdimi zim-ziyolarni,
Yorishdi tebranmas zimistonlarim.
Ko'zini ochganday ko'r dunyolarni,
Qo'pordi devorin tor zindonlarim.

O'sha qiz o'xshardi sizga naqadar,
Xushbichim, muloyim, pok va aqiqa.
Isming nima dedim, chuqur xo'rsindi
Shafiqqa...

So'ngra alahlash, bas, siz ozor topmang,
Safsata.... Afv eting... fasl g'amangiz.
Nuqta qo'ydim, mana. E'tibor bermang,
Oq-qora bulutni ko'rib qolsangiz.

5

Foytun, chirpiragi oy-quyosh emish,
Ildamlar g'alati na'ralar tortib.
Siz unda negadir mungli, faromush,
Ilgak solinganday ko'ksimning orti...

Tuganak, tugunga, nahot, asirman,
Basirman yo'qotish mahriga moyil.
Negadir xomushsiz, xavotirdaman,
Duoyi niyatlar etdim sidqidil.

Jonim, yetib boring sog'-u salomat,
Doim omon bo'ling o'shal olamda.
Qaldirg'och damlarda toping farog'at,
Bitmas quvonch toping totli damlardan.

Foytun yiroqlashar. Falak ridodir,
Tortdim ko'kragimga muhabbat jomin.
– Ey hayot, sharobing quygil, vido bu,
Alloh ishq kiritgan dil haqqi, omin.

Omin!

Qorsan, muvaqqatsan, eriysan, yo'qsan –
Aflotun emassan – atigi xotir.

Meni ezgilashga o'chsan, kechagi
Suluv eding,

Men axir...

Ko'zgu masxaralar, oq tushgan – xabar,
Ajinlar soladi noxush xavotir.

Meni g'ijimlashga o'chsan, kabutar.
Osmon eding,

Men axir...

Qo'rqqandim o'shanda, qo'llarim bog'li,
Qo'rqdim, kirib ketdim, chiqmadim –
chodir.

Meni nimtalashga izlaysiz, dog'li
Yurak eding,

Men axir...

Bo'riday sanqiyman o'z zulmatimda,
O'g'irlab olganim kechagi taqdir.

Nimaga unutay, dard, kulfatimsan,
Sevgim eding,

Men axir...

YOMG'IR

1

Yomg'ir, tesh yo davrangga ol,
Guldurakka oshno tutintir yokim,
Jigarim deb tanit biror sahroga,
Sevolmadim...

Sen-la tomib yotay, quyilay shitob,
Dov-u daraxt borki, barini ilgim
Siypab o'tib, asta qoldirsan xitob,
Kuyolmadim.

Menam yomg'ir deya yupanay, shoyad,
Qoramni butalab ololay, tokim
Tuproqning qatiga bitilsin oyat:
Ololmadim.

Shivillab boraman, omonligim yo'q,
Tantana tanamdan ayridur, balkim,
Zinhor senga, ey yor, yomonligim yo'q,
To'yolmadim.

2

Tindimmi, indimmi oxirul kalom,
Chiq, maysa, chiq, chechak, yam-yashil, zangor...

Kimo'zar o'yna-yu, biring ber salom,
Undan bu bahor.

Yalpizim, suyuklim uyigacha bor,
Iloj qil, deraza rohida ko'kar,
Bo'y tarat, dimog'i kuysin, u bilsin,
Mendan bu xabar.

Men senga kabutar, ruhman beozor,
Rad etma, jismida tebran bir daf'a,
Qo'ymagil, erinmay tushuntir: ey yor,
Undan men tuhfa...

Bir soat, ijozat ayla, quvonay,
Ajabmas, iqbolin butlasa orzu.
Zora, men haqimda surib qolsa o'y,
u...

* * *

Burda-burda-burdalab jonimni o'yib olgin,
Yarim-yarim kosalab shabnamni quyib olgin,
Yasan-tusan bo'yanib, lolalarga tenglashgin,
Meni deya vola chek.

Kechasimi, kechqurun havolab g'izillaymen,
Uxlayotgan sochingni tolalab turg'izgaymen,
Tushlaringni o'g'irlab o'zingga ko'rguzgaymen,
Meni deya uyg'ongin.

Hovuchingda shudringlar upa ayni subhidam,
Uni surkab yuzingga dugona top paridan,
Ikkovlashib fol ochgin uzoq-yaqin, naridan,
Meni deb duo o'qi.

Bahorni enaga qil, chechagin qator qilsin,
Qushlarini oshufta, og'ochin dutor qilsin
Va kunlarning birini baralla alyor qilsin,
Meni deb ovvora bo'l.

Daraksiz baxtim bilan uchrashay saqog'ingda,
Dam-u nafasim rostlab chekinay sanog'ingda,
Guldonla gurunglashib yorishay yotog'ingda,
Meni deya nola chek.
Meni deya nola chek.

* * *

Qo'limda alanga yaprog'i,
Shaboda arqoni bo'ynimda.
Boshimda falak tuprog'i,
Buz tunimni...

Hali-beri mashoqda payhon,
Toshgan daryo tashna xunimga.
Ko'kragimdan hayiqar rayhon,
Buz tunimni...

Sarkash, o'jar yillar puchmog'i,
Vishillar sho'r yurak ininda...
Toatimning buzuq yarog'i,
Buz tunimni.

U bir ari, u bir burgutday,
Haybat qoplar bor sukunimni
Savatdagi sof o'tday,
Tunimni,
Buz tunimni.

* * *

Momig'im, yumshog'im, to'shagi ko'klam,
G'am bilan yotibsiz qaqshab, og'rinib.
Yo'q deng, ko'nmang, zinhor ko'nmang,
Sindiring qoqsuyak bag'rini...

Atirgul qadahda shodlik sharobi
Va yoshim atigi bir-ikki tomchi.
Sepaymi alamni quchgan xarobim,
O'paymi labimda
Sevgi sog'inchi?

Asalim-shakarim, ko'ylagi shu'la,
Bolamlab silaysiz hijron sag'irin.
Band-u tomiringiz zaharga to'lar...
Yo'q deng, ko'nmang,
Shirin-shirininim...

Lojuvard, lojuvard, lojuvard deyman,
Go'yoki jodugar jodu vaqtiday.
Qizg'aldoqday xiyol qizaribsiz, sal,
Quchog'imda suvday
Chayqalmoqchiday...

YUZ YIL

Men yuz yil o'yladim, jonlanarmi kul
Shoshqaloq judolik judo bo'lmasdan?
Mahrami adolar, ado bo'lmasdan
Ki Majnun vasfiga yetarmi bulbul?
– Yuz yil o'yladim –
– Men –
– Yuz yil o'yladim...

Yakunda chaqnashib, qayta to'qnashib,
Uyquda tanishib, birga uxlashib,
Hislarin yo'qotgan bilan ahdlashib –
Piq-piq yig'ining kiprikdorlari...
– Yuz yil o'yladim –
– men –
– Yuz yil o'yladim...

Ingichka qalamdan olgan alamni,
Dumaloq chiziqqa tortdi olamni,
Qanday sezmak mumkin ilohiy ta'mni?

Har qo'lda tutuni o'rlaydi shamning,
– Yuz yil o'yladim –
– men –
– Yuz yil o'yladim...

Ayriliq jismidan ayrildim butkul,
Qayriliq qismidan qayrildim butkul,
Ko'zimdan yo'l solib ko'zing sori yo'l,
Siynangni hidladim misli atirgul.
– Yuz yil o'yladim –
– men –
–Yuz yil o'yladim...

ASAL

Bu asalni olib ko'ray qayog'idan?
Yuzim surkay nozikkina oyog'iga,
Huzurlanib oppoqqina qaymog'idan,
Patir nonning
Bir burdasi bo'lsa edi...

Biz, deydi u, bek akaning gulbog'idan,
Bog'langanmiz ola-chipor belbog'iga,
Parvonadek ming o'rgilib chirog'idan,
Barmog'iga
Labni kesib olsak edi.

Peshonasi og'rib turar bu ko'chada,
Orzulari chiqay deydi tor uychadan,
Abduvali akasini qiyiqchaga

O'rab olib,
Ko'ngil usti
Qo'ysa edi...

Bilsa edi, nazariga ilsa edi,
Samarqandning shamolidek yelsa edi,
Uzoq emas, yaqin toqqa kelsa edi,
Bolaridek
Asaliga cho'kar edik.

Nima derdik, bek akaning belbog'idan
Tushib qolsa sog'inchimiz titrog'idan.
O't qo'ysa-da, otash chiqib har yog'idan,
Indamasdan
Bag'rimizga olar edik...

EY DILBARIM

Ohumiding yobonimda suv izlagan,
Yohumiding tomonimda lab izlagan?
Dalligina jahonimda
Siyim-u zarim:
– Ey dilbarim..

Chashmaming, toshlar uzra to‘kilasan,
Ufqmiding, quyosh ketgach, yiqilasan,
Yamoq tushgan hayotimda
Sen chevarim:
– Ey dilbarim...

Biy dalada quyun ila sochilding-a,
O‘rtasida yavshan ila ochilding-a,
Yuragimga qadab qo‘ygan
Oq gavharim:
– Ey dilbarim..

Koshkiydi, to qiyomat biz yonma-yon,
Koshkiydi, to qiyomat biz jonma-jon.
Gulxan yoqib uzun tunning etagida,
Bilagimiz tilib qo‘ysak ust-ustiga.
To qiyomat
Zikr aytsam,
Mohpaykarim,
To qiyomat zikr aytsam, mohpaykarim:
– Ey dilbarim...

USHMUNDOQ

Osima,
Ne qilay, ko'nglim ushmundoq,
Bir cheti osmon-u, bir cheti tuproq.
Bir tunda podshoman ikki kishvarga,
Bir kunda zordirman bir qur nazarga.
Lipillab, lipillab bo'zardi ruhim,
Xohla porlatib qo'y, xohla parchala,
Esiz, har tomonga urdi shukuhim,
Esiz, o'tolmadim shum darichadan.
Osima,
Roziman, mendan asar yo'q,
Ista, men haqimda boshqa xabar yo'q.
Ammo dilim erka dilingni istar,
Mendek xushxabar yo'q,
Mendek xatar yo'q.
Osima,
Alarga ko'p ham inonma,
Ular qush ko'mganlar xiyobonlarga.
Qumlari zarlangan
Bo'lsa ham bordir,
Lek harom o'rmalar tavonlarida...
Osima,
Sen haqsan,
Men tugab botdim,
Bu qissa so'ngida, shudir qasida.
Go'zal borlig'imni maydalab sotdim,

Yo'g'imni qaytardim
O'z egasiga...

* * *

Sha'mi bahorimda, ohorim mana –
Zorlarimga zor-intizorim mana –
Irg'ay daryo yotgan to'g'onni ko'tar –
Mana zam-zam.

Irik holva tushdi, ko'kni kuzatsam,
Ivirsiq dard keldi tutgali zardob.
Sevgim, seni qaysi yerga uzatsam,
ko'rmasang azob...

Ochib bo'larmikan biror odamni?
Qopqonning mehridan qutulmas sayyod.
Namga bo'ktiribsan chala olamni –
Bod –
Bot...

Men kim ishq xaylina yig'guvchi xor-xas,
Imlasam, yoyilib u bo'lar atlas.
Shunda ham, yo tavba, etguvchi araz,
O'sha –
chin mast...

Afsuski, tiyildim boshqa payt, mahal,
Boshqa zo'r ohangda gapiradirman.

Bunga siqilmasang qalb degan ashqol,
Mana –
Dashqol...

NAFAS

Nafasing yuzimda uxlasin endi,
Qaynoq so'zlaring ham tinsin shu muddat.
Qo'llaring qo'limni tinglasin endi,
Shoshilma, muvaqqat, bari muvaqqat.

Yuragim, yuraging vasl topsinlar,
Nigohim nigohing yoshlansin, jono,
Bo'salar qadalib sabza ursinlar,
Ohlarim ohingdan boshlansin, jono.

Marvarid qorlarga boraylik, sevgim,
Bag'rimiz yuksakda to'lsin havoga.
Cho'qqida zungina turaylik, sevgim,
Suvratday qulaylik zilol ma'voga.

Yoshligim bo'ysunmas, chiqqan izmimdan,
Qistaydir ketmakka so'rab ijizat.
Xayrlashayapman lolaligim-la,
Jonim, nafasingni yuzimda uxlat.

To'xtamas hech narsa: uryon, lahzalar,
Jismimda larzalar olgan halovat,

Bu ne tilovatdir ilgimga qadar,
Jonim,
Nafasingni
Yuzimda
Uxlat...

* * *

Sarvim, arazlabsiz, hijob tutibsiz,
Bizni qora ko'rib, simob yutibsiz.
O'lib bo'larmidi bizziz, bilmabsiz,
Ahvolimiz o'xshash, hech o'ylamabsiz.

Mijgonda quyoshni bandi saqlabsiz,
Sho'rlikni kimga asrandi saqlabsiz,
To'zonni sovutib g'avg'oga boshlabsiz,
Sarvim, xatomasmi, bizni tashlabsiz.

Gardun iqbol sari yurmasa yurmabdi,
Mayxona changini qormasa qormabdi,
Shungayam shunchami, xo'rlasa xo'rlabdi,
Baribir ko'nmaymiz, zo'rlasa zo'rlabdi.

Oqshom kulbasida biz-da mehmonmiz,
Avjlansak, yalang'och mohitobonmiz.
Xijolatlar bo'lmang, gul-gulistonmiz,
Biz shunday ayonmiz, shunday tamommiz.

Oh, orzumi orzumi beomonlikda,
Oh, darmon darmonmi bedarmonlikda?
Sizdan so'rovimiz, ilinjimiz shu:
Sarvim, bizga qayting – sargardonlikka.

Bizga qayting, sarvim...

EHROM

Misr mis rangida, kun-kechasi mis,
Afsona qa'rida o'zimman, yolg'iz.
Qo'rqaman,
Duoybad qilsa arvohlar –
Yuzim mis...

Uvada, mijg'ov jaziramalar,
Qilich uraversa, jaranglayversam.
Qo'rg'oshin kiprigim qimirlatolmay
Alanglayversam...

Qutqaring, tilimda zanglagan qurum,
Fikratimda o'sha – iblis anglagan
Kattarib, kattarib borguchi xitob:
Changalman...
Changalman...

Misman,

Pajmurdaman, soqov ehromda,

Shoqolman, panjamda

O'lja bo'lagi.

Yoshim o'n sakkizda Tutanxamonday,

Emgim kelayapti

Chayon ko'kragin.

* * *

Ahli Ishqlarga

Qadimiy navolar, qanday davolar,

Kafani yaprog'din bulbul mozori

Shafaqqa burkansa,

Oydin sabolar

So'zlasa Umrning azm-u qarorin:

«Oltin qafas ichra qizil gul bitsa...»

Ne tong Quds piri yuborsa xabar,

Har daraxt shoxida shabnam mujdalar,

Na taqdir azal, na jumla qadar,

Shu xolis bitikka ursa nuktalar.

«Oltin qafas ichra qizil gul bitsa...»

Intiho topmagay hijron azobi,

Na uchun berilmas sabr javobi,

Bormikan tovbaning misqol savobi

Yo shumi Ibtido yozgan kitobi?

«Oltin qafas ichra qizil gul bitsa...»

Naylayin, umidim yupanch kul etmish,

Tilagim ulg'aymay hukm qul etmish,

Ko'pimni sayyod, kamim sayd etmish,

Barini to'plab bitta bayt etmish:

«Oltin qafas ichra qizil gul bitsa,

Bulbulga aningdek oshyon bo'lmas emish...»

* * *

Orazi ko'zguda ayni hiloldur,

Kamolin soqchisi, jangchi maloldir.

Yuragim yonida qalb ehtirosin

Ayamay uradir mehri qasosi.

U nozik qayg'udir, nafis ayriliq,

Botindan olovday ko'chgan hayqiriq,

Ismaloq hislarin sochgan xushqadam,

Hozirdan oldinroq,

Avval, muqaddam.

U juda mehribon, juda oqila,

Ishqim mehmoni, hushim sarboni.

Yo'qlasa, jambillar unar bir yo'la,

Yulduzi qaldirg'och kibi osmoni.

U asl parivash, u tengsiz imdod,
Qilgan munojotim nola lafzida.
Naqadar fusunkor, naqadar obod,
Menga ham uy bormi iffor faslida?..

* * *

Qaysi muzofotda, qaysi ko'chada,
Qaysi xitoblarda necha-nechadan.
O'tib ketmoqdasan so'ngsiz kechadan,
Osima yonimga qaytsang bo'lmasmi?

Shamolning ko'rinmas qo'lida jussang,
Adashgan tuyg'ular yo'lida g'ussang,
Shirinning bo'zlagan elidan qochsang,
Ohista yonimga qaytsang bo'lmasmi?

Tanobi tortilgan iztirob kimxob
Dalada tillashar, anglamas sarob,
Qashqir yog'dulardan tomchilar simob,
Na qilding, yonimga qaytsang bo'lmasmi?

Ufqdan ufqqa sharpalar ko'char,
Ko'ngli sinig'lari, parchalar ko'char,
Endi bu sharobni boshqalar ichar,
Osima, yonimga qaytsang bo'lmasmi?

Muyassar bo'lmag'ay husni-jamoling,
 Yomg'irdan esdalik, nuqtaday xoling,
 Uzilgan arg'amchi misoli holing,
 G'ir-g'ir og'ib qoldi aql-u hushim ham,
 Yostig'ing ustiga tushgan tushim ham...

Fisq-u fujurlaring o'rmalab o'tdi,
 Olma atab edim, parmalab o'tdi,
 Chayonday qahringni o'rtağa solding,
 Nish surib, gajaklab labma-lab o'tdi.
 Bir-bir titrab qolar ikki qo'lim ham,
 To'g'ridan adashib tolga yo'lim ham.

Chug'urchuq erkalik qilsa maylimi?
 Aytsa istagimning go'zal saylini,
 Shipsitsa yashirib yurga maylimni,
 Ajab shaydolikdan topgan aybimni,
 Shir-shir oqib tushdi soydek alam ham,
 Gir-gir qulab tushdi oydek olam ham.



Meni balo koʻrdilar, seni aʻlo koʻrdilar,
Yuragimiz ustida chapak chalib yurdilar,
Seni koʻkka surdilar, meni yerga urdilar,
Ikkimizning ishq toʻla jonimiz sugʻurdilar.

Tosh urilib boshimga, bezovta oʻkirgan dam,
Togʻday bardoshim titrab adirday bukilgan dam
Alamlar koʻzdan toshib sel boʻlib koʻpirdilar,
Ustiga toʻgʻon solib, zaharlar supurdilar.

Yulduzlar qulonlarday sahrodan chiqib kelmas,
Matosi shom nuridan chodirni yirtsalar bas.
Zamon bizga mos emas, biz zamonga mos emas,
Nigohdan ilgak tashlab, sevgimizni qirdilar.

Osmonoʻpar choʻqqilar, bir oh cheksak, yemrilar,
Bahorning koʻklamini tashib kelar qumrilar,
Yana qancha yaxshilar biz tarafga boqdilar,
Voh dedilar bir nafas, rahm etmay yoqdilar.

Ey mugʻanniy, kuylaring moziylarning ranjidir,
Xaroba-yu bahaybat qasrlarning ganjidir,
Sanduvochga yalinib, patiga yuz surkadik,
Umidimiz eng shirin nolasiga burkadik...

Hayoting talabadek, dunyosi ijaraday,
Magar mashrab istaging ziyosi panjaraday,
Hech kimga o'xshamasang, tushunmay, indamaslar,
Chamalab tig'lar niqar ko'plashib ayamasdan...

Allohim, o'zing buyuk, bezavol makon ata,
Oqqushlarga qo'shni tut, tip-tiniq osmon ata,
Bag'rimizga eshik qo'y, dil bilan diydor ata,
Panjasig'a ilashib olg'ali shunqor ata...

So'z bahosi yarqirar Navoiy durlarida,
Ehtiros ufqi balqir Hofizning she'rlarida,
Pichir-pichir qilyapmiz da'voning yerlarida,
Inonsak, jonon, bo'lar muhabbat qayerlarda?..

SAMARQANDCHA...

Aqli rasolardan pand yedim qattiq,
Hush-u behushlardan ranj ko'rdim ancha.
Rang-u raftorimga
Topmadim baho,
Dardim samarqandcha.

Mannn-man akalarga aytdim necha bor,
Bog'ki, ki unda shamol gul ochar.
Temurning jomidan boshlanar bahor,
Navoiy davvoti

Anda yo'1 ochar.

Abulays ruhida yonar Zarafshon,
Motrudiy qalbiga tutashgan oftob.
O'xshamas, mengzamas, qiyossiz, ishon,
Ham hayrat,
Ham azob.

Magarkim ishq uchun abadiy dilband,
Sof oshyon izlansa magar ul uchun.
Shubhasiz, Samarqand
Munosib oshiq,
Shubhasiz, Samarqand
Haqiqiy Ochun.

SOQCHILIK...

Yurakka
Soqchilik
Qilmakdin qutul –
Osmonni o'yla – osmonga yutul –

Kuy, kuyda kuy,
Navoga qo'shil –
Ulug'lar siypagan havoga qo'shil –

Kuy, suy,
Sevgiga band bo'l –
Loaqal, loaqal, bir dona qand bo'l –

Zaharing boshga
Urmasdan burun
Qora yer
Etingni qirmasdan burun –

Kuy, kuyda kuy,
Ohangga qulf sol –
Yuqol, yuqol, yuqol...

* * *

Afsus, afsunlarin yod oldim, esiz,
Rizo-yu dil emas, dod oldim, esiz.
Tufroqdin samoni yasab bo'lmadi,
Ko'zimga surtgali bod oldim, esiz.

Etagingga qistir xasta jonimni,
Zinhor shafqat qilma, o'chir tongimni.

Bir so'zdan yaralgan zaminni turg'az,
Koinot ortida g'amingni ko'rgaz,
Qara, g'oz galasi ustida araz,
Aynigan iymonda yuz boshli g'araz.

Qatlim ayon etma iddaholarda,
Aslim bayon etma muddaolarda...

Sevinchga boy edim, valoh voy bo'ldim,
Tunim quyosh-u kunim oy bo'ldi,
Na bir ko'zasoz-u, na bir loy bo'ldim,
Orzuyim yakuni hoynahoy bo'ldi.

Labbay deb borardim, imlasang, hayhot,
Shirin xayolimga tish bosar barbod.

Shoirilar kelmoqda yalangliklardan,
Ohangi irmoqday dasht-u qirlardan.

* * *

Osima uchrashsak tunning yarmida,
Zinhor uyalmasin bizdan zarbadan.
Zulfing gajagiga yalpiz tashlangan,
Yo Rab, bu ne savdo,
Yo Rab, bu ne g'avg'o?
Seni sevmoqdaman
Ming bor qaytadan.

Xayolim yo'llari qoldi cho'zilib,
Endi qulamaydi yerga yuztuban.

Shafaqning ko'ksidan olovlar uzib,
Yo Rab, bu ne savdo,
Yo Rab, bu ne g'avg'o?
Seni sevmoqdaman
Ming bor qaytadan.

Kunlar girdobida aylana boshlar,
Gulladi, sarg'aydi ne bog'-u chaman.
Atirgul bargidan yopinchiq ushlab,
Yo Rab, bu ne savdo,
Yo Rab, bu ne g'avg'o?
Seni sevmoqdaman
Ming bor qaytadan.

Xivadan Buxoro, to Toshkent qadar
Turnalar yonida kuysam daf'atan.
Bulutlar oralab kechsa-da safar,
Yo Rab, bu ne savdo,
Yo Rab, bu ne g'avg'o?
Seni sevmoqdaman
Ming bor qaytadan.

Ko'ngil qoraysa gar, dunyo begona,
Shabnam nami kabi sira o'chmas g'am.
Oydan taralmoqda za'far tarona,
Yo Rab, bu ne savdo,
Yo Rab, bu ne g'avg'o?
Seni sevmoqdaman

Ming bor qaytadan.

Osima, uchrashsak tuning yarmida,
Bilsang vujudimda o'chayapti sham.
Mayli, o'n asrlar o'tsin kamida,
Yo Rab, bu ne savdo,
Yo Rab, bu ne g'avg'o?
Seni sevmogdaman
Ming bor qaytadan.

* * *

Yiyna urib tikib qo'ying Farg'onani ko'zlarimga...
Atlas to'qib hislarimdan Marg'ilonni o'rab bering,
Tilginamga holva topdim dildorimning izlaridan,
Ey yoronlar, qo'llarini
so'rab bering qo'llarimga...

Andijonda jonim mani o'krab chiqdi namozshomda,
Namanganda qonim qaynab faryod chekdi har
oqshomda.
Sherlar keldi Samarqanddan, bu yigitning so'zi rost deb,
Ey yoronlar, qamchi tegdi,
O'tay desam bu dovondan...

Uchqo'rg'onda uchta qo'rg'on, barisida bitta armon,
Oltiariq tomonlardan shamol bilan yeldi hijron,

Vodiy uzra ucholsaydim, yordam bersa oymomojon,
Ey yoronlar, sevgilimning
Mijgonlari oromijon...

Haziniyday hazindirman, G'aribiyday g'aribdirman,
Muqimiyning hujrasida telbaxayol sanqibdirman,
Bo'sh qadahga dardlarimni to'lgunicha siqibdirman,
Ey yoronlar, billalashib
Alam bazmin qizdiraylik...

Yiyna urib tikib bering Farg'onani ko'zlarimga,
Hislarimdan atlas to'qib Marg'ilonni o'rab bering..
Hech qursa, bir ro'molini hadya eting, o'tinaman,
Tushib ketgan yuragimni
Chirmab bering ko'kragimga...

IKKI METAFORA

I

Chiroq ko'targuncha – o'tadi – ana –
Egilib – etagin – yig'adi – kampir –
Ming'irlar – teraman – soriq-do'lana –
Ezg'ilab – yaxshilab – qoriyman – xamir –

Tup-tuzuk – kun – bo'lar – hushta'm va issiq –
Kulchani – erkamga – beraman – puflab –
Balandga – chiqadi – qilar – nonushta –

Bola-da – ba'zida – yuborar – tuflab –
Injiq fe'l – bilaman – ovchi – bo'lmoqchi –
Doim – to'ydiradi – kuchukchasini –
U – sodiq – bolamga – abadiy soqchi.

Chirog'i – o'chadi – ketadi – ana
Bukchayib – etagin – yig'adi – kampir –
Kuchukcha – tamshanar – keladi – bola –
Nonushta – qiladi – kulchasi – issiq.

II

Po'pisaladi:

– Miyangni yorib qatig'ini chiqaraman!

Orqasida turgan toshni ko'rsatdi:

– Dabdaba qilishga shu ham yetadi...

U bo'lsa kela berdi;

– Hamma ismim bilar – Quvondiq.

Dushmani qo'ymadi, tosh uloqtirdi.

Boshidan tirqirab to'kildi qatiq.

Uyg'ondi qishloqlar, shaharlar, yurtlar

Tamshandi: – O, qanday ajoyib, ob-bo..

U esa chalajon, zo'rg'a jilmaydi:

– Quvondiq keltirdi sizga murabbo...

NAZMDAGI NASR

ERDON SUVCHI OQDARYODA JON BERDI

Pildirayman, chuldirayman, tizzam cho'kkan,
Ishtixonning biqinida,
Oqdaryoda
Quyun dunyo samaniday chopar yurak,
Qum tuproqqa yuzim teggan,
Og'zim teggan,
Suyaklari churiganday
Qaqshar ko'krak.

Maymun bo'lib yurganim yo'q edi asti,
Xotinchalish emas edi bo'y-u bastim.
Miltiqdaydim, shu paytgacha sharaq-shuruq,
Ne kasofat nafas olsam, nafas quruq.

Erdon otim, suv taradim ketmon bo'lib,
Goho yomg'ir, goho katta osmon bo'lib,
Gashtaklarda gap tashladim sulton bo'lib,
Kurashlarda qo'l uzatdim sirtlon bo'lib.

Endi esa suvga pishgan mushukdayman,
Ikki yog'i nov ulangan teshikdayman,
Ajal niqtab o'ynab turgan oshiqdayman,
Atalaga cho'kib qolgan qoshiqdayman.

O'n chaqirim qolvudi-ya uyimgacha,
To'rt kun qovdi kichkinamni to'yigacha.
O'n bir bolam suv bo'yiga kelarmikan
Yo etimni epkin horib tilarmikan?

Bu ne balo, jon tirishar Oqdaryoda,
Ikki oyoq ikki taraf ketay deydi.
Kallam toshday og'irlashar, bedavoday
Qum kovlagan qo'lim chuqur kiray deydi.

Olovdayin til qaytargan kalima ham,
Bolalarga tushov endi Halima ham.
Suv sudrasa. Gum bo'lsaydim, qani, tezroq,
Loyqa to'lgan xum bo'lsaydim, qani, tezroq.

Erdon otim, pirim daryo – xizmat qilay,
Arvoyimni hazratimga xilvat qilay,
Umr ko'ppak qanjiqligin ko'rdim o'zim,
55 da edi yoshim, hasrat qilay...

OYBUVI ELMUROD NAYMANNING OTIGA MINDI

Chiyabo'riday alaksib, qorong'uga o'ranib,

Ko'zini chaqchaytirib

Olib ketdi Oybuvinini Elmurod nayman.

Bo'riday uvlab bir gala yigit quvladi,

Qanoti yetti gaz burgutday uchdi Oybuvinining
ukasi.

O'roqni siltalab nim yashil yorug'ni o'rib,

Qirning o'rkachiga o'tirib oldi Quvondiq kayvoni:

– Quvlang!

– Oybuvi Elmurod naymanning otiga minmasin.

Besh tun o'tdi, Oybuvinini ukasi qaytdi,

Ko'zi qip-qizil. So'zi qip-qizil.

– Elmurod naymanni, Oybuvinini, u mingan otni
Jar yutdi.

Shu gap. Og'zingizda tish mixday tursin.

Guldur-gup.

JABBOR MAXSIDO‘Z IBLISNI TANIMADI

Charmni taxtalab,
Yangi ayolini tepganidan pushaymon tortib,
Oyog‘ini chopib tashlashga shaylangan Jabborni
do‘koniga

Bir bobo kirib keldi, qoshida tuki yo‘q,

Beshta turmushim bor, beshta mahsi ber,
Kiysa tovonni qurtlasin.

Biri jafo, boshqasi karashma, o‘rtanchasi firib.
Undan keyini dev, oxiri alam.

Jabbor mahsido‘z yig‘ladi.
Qirq besh yillik vafodorimdan ayrildim.

Aqlim qurib Do‘smatni go‘rga tiqqan
Zormandani ovdim, bobo,
Sichqonning hidi keladi barmog‘idan.

Ertalab cho‘chib uyg‘onaman,
Qulog‘imda chiyillaydi tilginasi.

Bobo o‘ylanibdi, so‘ng aytibdi:

Qo‘lqop tik. Uchiga beshta igna qo‘y.

Jabbor qo'lgop tikibdi qiynalib,
Adashib qo'lini tiqib opti
Kechasi
Uchtasi miyasiga, ikkitasi yuragiga qadalibdi.

Bobo qirq kun o'tgach Jabbornikiga kepti,
Olib ketibdi uning yangi turmushini.
Yo'lma-yo'lakay qulog'iga pichirlabdi:
– Sen mening oltinchi xasmi haromim,
Endi isming Qassob...

SODIQ SARTAROSHNING O'G'LI O'G'RI BO'LDI

Allamahalda yuz qo'yni junini qirqib
Kelayotsa, Hotam qusurni qizi hapriqibdi:
– Toshkentga ketaman, sochimni kesib qo'y,
Mana, toza qaychi.

Unday debdi, bunday debdi, qiz ko'nmabdi,
Oxiri kesibdi ikki o'ram sochni,
Qiz: – Otam ko'rmasin, yashirib qo'y, – deb
Unga beribdi ko'lvor kokilini.

Sodiq sartaroshning o'g'li jin chalgandek
Lapanglab kiribdi uyiga,

Taram-taram sochni quchib uxlab qopti to subhi
sodiq.

Ertalab bo'g'zida otasi qaychi,
Hotam qusur pichoq tirab turganmish
G'azabi mo'riday o'rlab.
– Buni sen o'g'irladingmi?..

Jinday chalinibdi, hush kirgach, qarasa,
Qo'ynida Hotam qusurning qizi –
Ikki o'ram sochi tarvaqaylagan...

ALI CHAVANDOZNI QARG'ISH URDI

Ali xotiniga qaradi, otini siypadi,
O', xotin desa, ot kishnadi, ayoli labbayladi,
Tunda uni o'pdi, kunda buni o'pdi.

Ayoli chidadi, sabr kosasi to'ldi,
Ayg'irni zaharladi bir kuni.
Ali chavandoz otday kuypishladi,
Ayolini qamchinlab urdi,
Og'zi ko'pikladi to'satdan.

Uzundan uzun o'shqirdi,
Tildan qoldi.

To'shakka quladi.

Ayoli o'sha qamchini olib savaladi qasdma-qasdi-
ga.

Ali otday ihrandi.

O'rnidan turolmadi.

– Buguningdan battar bo'l, otning o'ynashi,
Tuf senday erga... dedi ayoli.

Alining ko'zidan yosh suvrat chizib tushdi
Ayg'irning ko'ziday.

Ayol uvvos sola bosh olib ketdi...

LAQMA ESHQUL AFSONASI

Eshqulni bozorda laqillatishdi

Bitta Megajin-u to'rtta So'laqmon.

Birinchi So'laqmon tilla so'radi,

Ikkinchisi muzday suv.

Uchinchisi – xotinchalishi:

– Beda ber, – dedi.

Megajin bo'lsa xiringladi:

– Ovsarga o'xshamaysan, Eshqul!

Mana bu go'salani ol-u ket.

Eshqul yetaklab ketdi.

Ertadan kechgacha tinmay ishladi
Go'salani boqaman deb.
G'addorlar navbatma-navbat kelishaverishdi
Eshqulning holini ko'ramiz deb.

Go'sala semirib bahaybatlashdi,
Og'ilxonaga sig'madi sumbati.
Eshqul sho'rlik kichkinalashdi,
Yuragi – suv, tili – beda, qo'li – o'lan...

Jonidan o'tdi,
Chidolmay qoldi Eshqul.
Qarindoshi To'ychinikiga borib,
Hasrat qildi: – Menda bir Go'sala bor,
Olov kovshar!
To'ychi indamadi, imladi,
Og'iliga qildi ishorat:
Eshqulnikidan ikki marta katta
Go'sala Quyosh kovshar edi.
Tarvuzi qo'ltig'idan tushib
Eshqul o'tirib oldi poygakda.
– Ey, bu ota-buvamning hasrati,
Megajindan tekkan sadaqa.

Eshqulni bozorda laqillatishdi.

ARMON

Beshiksoz Ostonqul uyiga qip-yalang'och
yog'dutan ayol keldi:
Ul tug'ib berayinma – Yog'dutan.
Qo'g'irchoqsiz Darmonqul uyiga shir-yalang'och
quyoshtan ayol keldi:
Qiz tug'ib berayinma – Quyoshtan.
Yo'q dedi uli ham, buli ham.
Xotinin dedi ul, buli ham.
Ellik yil tirnoqqa zor bo'lib o'tdi,
Hassafurush bo'lib keldi Azroil.
Oqish jubba berdi, ming'irlab ketdi,
Berdi chaynab ye deb ozroq zanjabil,
Hassaga tayandi, oq jubba kiydi,
Hassaga tayandi ikkisi biroq.
Axir quruq ko'krak qanday iviydi,
Axir qanday yonar piliksiz chiroq?
Ostonqul indamay yasadi beshik,
Tebratsa, chaqaloq yig'isi kelar.
Tebratsa, kurrayi azimning barcha
Kelinlari o'g'il tuqqisi kelar.
Darmonqul ham yasab oldi qo'g'irchoq,
Otajon deguvchi, bursa murvatin.
Quchoq ochib tursa, ochguvchi quchoq,
Sarvday tik tutguvchi doim qomatin.

Qubbalar eskirdi, hassalar sindi, ikki qil obkeldi

sekin

Azroil,

Ikki jonni osib badxulq soʻkindi, vasiyat qilardi ikki
benasl:

– Meni beshik bilan koʻmingiz, toki

Goʻrda ham tebratib yotay suyunib.

Meni qoʻgʻirchoq-la koʻmingiz, toki

Goʻrda ham oʻynatib yotay suyunib.

ERKIN ARUZ

BILMAM

Ne hush-u havas bilmam yo labmi mast bilmam,
Koʻzinga alas tushgan yo matlab past bilmam.

Oʻyimdagi rayhon u, ki buncha nolon u,
Har kechasi kahkashon, moh kabi sarson u.

Gar jonim oyogʻi-la turtib oʻtar boʻlsa,
Ustimda alam oti yoʻrtib oʻtar boʻlsa.

Poyi xashokiman, injilmay olib koʻrsin,
Rasmi najotiman, qoʻnjiga solib koʻrsin.

Qirqtora axir manman, sadpora ham manman,
Ishqida sagʻir manman, bechora ham manman.

Ummidi jahon bir pul, aslo nazar ilmam,
Aningdek nihon sumbul, zulfizar bilmam.

Ruhimdami bu g'avg'o, g'avg'oyi nafs bilmam,
Yo labmi mast bilmam, yo matlab past bilmam...

OZODLIK

Doston

Ozodlik, seni men ko'zimning
Qoni-la yuvganman,
Sen-la iliganman, sen-la soviganman.
Yuragim ichida bolamday ko'rganman,
Labingga lab qo'yib ta'mingni so'rganman.
Ozodlik! Oyoqlar ostiga bormasman!
Kishanga kirmayman, zanjirga tushmayman,
Begona jallodga boshimni bermayman,
Ozodlik, bag'ringga kirganman,
Shirining sezganman,
Guling hidlaganman, bog'ingda yurganman,
Qizingdan mast bo'lib qo'ynimga tortganman,
Hilolning ostida sher bo'lib yotganman.
Ozodlik, oyoqlar ostiga bormasman!
Onamsan, ozodlik, yuzlarim ko'ksingda,
Qo'llarim bo'ynimda, meni sen sevgaysan.
Ochlikdan qo'rqmasman: riyodan qo'rqarman,
Qulmasman, qullikka bormayman, ozodlik!

Bormasman oyoqlar ostiga...
Sen meni erka kapalagimsan,
Boshimga qo'ngansan, boshimdan ketmaysan,
Qizimsan, qizil qizg'aldog'imsan,
Orimsan, nomussan – sendan kechmayman,
Ozodlik! Oyoqlar ostiga bormasman.
Tirnoqqa bormayman, panjaga bormayman,
Yaltoqi itmasman, yovg'onga bormayman.
Men seni sog'inib, ichikib topganman,
Besh yuz yil kechikib, kechikib topganman.
Otganlar, sotganlar men emas, boshqalar,
Elini mijig'lab suvini ichganlar
Bilsinlar, bormayman oyoqlar ostiga...
Ozodlik, bolamning bolasiga yet.
Yetmishta pushtiga tatigil, yana
Yetmish ming ajdodga otalik qilgil,
Oyoqlar ostiga yiqilma, Ozodlik!
Pishlog'ing, xotining,
Jilvang-la avrama, Zulm,
Jimoli qo'yingga kirganlar buzilgan.
Lablari qiyshaygan, ko'zlari suzilgan,
Nomsiz odamlarning dunyosi dunyong.
Men sening dunyongga bormasman, Zulm.
Ozodlik, sen tog', soya emassan,
Shoshsan, Samarqandsan, Qo'qonsan, Gurganj.
So'limsan, o'limmas, sen Nasafimsan,
Sorimsan mag'rur, zo'r nafasimsan.
Sensiz qanday yashay, havosan, suvsan.

Jahonsan, jonginam, yutoqqanimsan,
Sensiz hayot bormi, Ozodlik?!

Sensiz najot bormi, Ozodlik?!

Ko'rganman quvg'inni, izg'inni,
Sarsonni, yanchilgan, toptalgan kunni,
Sirtmoqqa ilingan momoni ko'rganman,
Mungni ko'rganman, u bilan turganman,
Oyoqlar ostiga bormayman, Ozodlik.

Men seni yelkamga opichlab olaymi,
Samoga chiqaymi, Xudodan so'raymi,
Ismingni olovga tovlatis olaymi?

Sen kimsan, Xudoning o'g'lisan, Ozodlik!

Eng buyuk rasulsan, Ozodlik!

Kitobing o'qiyman, hijjalab o'qiyman,
Diningga kirganman, diningdan chiqmayman.

Yo'lingga tushganman, boshimni tikkanman,
Dalangga qalbimning qo'rini ekkanman.

Ozodlik, oyoqlar ostiga bormasman!

Qayrilma, burilma, Zimiston chinqirar,
Ola-kula qarar, elchisi kelar –
Zirhli yelkasida tobut bor, qara!

Men sening qora tobutingda yotmasman,
Zimiston!

Ozodlik – gulim, oyoqlar ostiga bormasmiz.

Ozodlik, ilk she'rim singari latifim,
Registonda uchgan kabutarimsan.

Shamolga ma'shuqa bozbaragim-u
Xo'rlangan ko'nglimda mushtdek yig'imsan.

Ozodlik, vujudim ichida vulqon,
Otamsan g'ulg'ula darddan chiqmagan,
Yodimsan, uyimsan, parko'rpamsan mening,
Ozodlik, bormasman oyoqlar ostiga.
Sen mening kenjatoy suqsur o'g'limsan,
Emizik og'zida kulgani kulgan,
Boshingni hidlayman, hiding boshqa sening,
O'zing boshqa sening, Ozodlik!
Sen mening ko'kragim, qichqirig'imsan,
Viqor-la aytilgan maqtovim,
Belimdagi quvvat, og'zimdagi ilik,
O'zingsan olovim, Ozodlik!
Bormasman oyoqlar ostiga.
Suyunchim, kulguchim, tilla qilichim,
Taxti Sulaymonim, ahd-u paymonim,
Podshohim, shahzodam, ilohiyzodam,
Ozodlik – sen ota!
Otani zindonga bermaslar, Ozodlik!
Ustyurtda qirqilib qolgan tanimsan,
Hindda adashganim, mahzun kalomim.
G'aflat dunyosini uyg'otgan ham sen,
Sensan qahkashonga bergan salomim.
Oyoqlar ostiga bormasman, Ozodlik!
Qora qon bag'rida lim-lim, lek mag'rur,
Shahri basirlardan ketgansan mangu.
Zanjirlar butoqday gullagan mahal
Ko'rlarga tabib-u nurlarga habib,
Yo'lchi yulduzimsan, Ozodlik!

Yakqalam sen, pir nazm sen,
Navoiy sen, mangu azm sen,
Haziniy sen, ruhga jazm sen,
Ruhimning qiyomi – navvot bazm sen,
Shu bazm ichinda senga oshiqman,
Aylanib-aylanib qushga o'xshayman.
Qushday har so'zimni tongdan aytgayman,
Oltin kitobingdan sahfa aytgayman.
Sururga tashnaman,
G'ururga tashnaman,
Ko'zgu qarog'ingdan
Suv berding, Ozodlik!
O, bu qanday suv edi, Ozodlik?!
Tirnog'-u sochimga to'qlik yugurdi,
O, laziz lazzatim Ozodlik!
Yuragim to'q endi Ozodlik!

II

Qilichning damiday sening nafasing,
Tog'ni ko'targuday shiddating, shavqing.
Osmon egilmaydi, yulduz to'kilmaydi,
Yurak bukilmaydi, yorilar faqat...
Yorilma!
Yuraging musiqor yanglig' –
Quyoshga qanoting urilib tursin!
Hech qachon qanoting sinmasin, Ozodlik!
Hech qachon yuraging so'nmasin, Ozodlik!

99-midi,
Vaqting zarbida,
Abri naysonlarni, hayvon, insonlarni
Birdek mazzamatda, birdek hikmatda,
Qish bilan bahorning donishmandlari
Ko'klam ayshlariga chorlashar edi.
Silkindi,
Gumburlab
Qaro quyunlar –
Toshkentni bag'riga tortdi to'satdan.
Qarg'alar ko'paydi
O'sha kun Toshkentda.
G'alamis va qo'rqqoq fitna to'dalar
Yag'mosi havoni tutatdi.
Qo'qqis
Nafasim ko'ksimga sanchildi shunda.
Angladim,
Ozodlik!
Beshikka solib
Tebratib turganding kelajagimiz,
Bir vaqtlar Temurga tutgan siynangni
Tutganding sen uning avlodlariga.
Shamshir ko'targandek shoh Ulug'bekka
Shamshir ko'tardilar senga, Ozodlik!
Nafasim ko'ksimga sanchildi qattiq,
Nafasim ko'ksimda qoldi buralib.
Birdan: «Bolam!» – dedim,
«Voh, bolam!» – dedim,

Yolg'iz o'zi edi uyda jon rishtam.
Qanday yetib bordim, shamol edimmi?!
Bag'rim olov ichra, olov kechdimmi?!
O'g'limni hayotdan bildimmi aziz,
O'g'limni dunyodan ko'rdimmi aziz?
Bordim, qo'lg'inasini titrar o'g'limning,
Bo'ynimga osildi: «Dada, portladi,
Yomonlar!..» – dedi pichirlab ma'yus.
«O'g'rilar kelishdi, – dedi. – Toshkentga...»
O'zimni yo'qotdim, dong qotdim, yo Rab!
O'g'lim Ozodlikning tili edi go'yo,
O'g'lim Ozodlikning dili edi, yo Rab!
U qo'rqqoq emasdi, xo'rlangan edi.
«Odamlar o'ldilar ana u yerda,
Ular meni ham o'ldirishmoqchi...»
Uzoq-yuluq so'zlardi pichirlab,
Qo'lchasini musht tugib, yuragi urib.
Hayhot!
Janob Rasuli Akram:
«O'ldiring qavmingiz», – demagandingiz.
Siz iymon nurini sochgan mahali
Ko'ppaklar butlarni talashar edi.
Bir qarich inson-u ko'ppak orasi,
Bir qarich ingrash-u hangrash orasi...
Hatto tosh dodladi
Bid'at asrida –
«O'qi!» – dedilar, Siz o'qidingiz,
Olamga Allohning kalomi keldi –

Hidoyat keldi, Himoyat keldi,
Kuydi qalblardagi
Ming yillik qurtlar,
Iymon kurtaklari nish urdi gurros.
Ozodlik poyingiz yoniga keldi,
Boshin siladingiz, fatvo berdingiz,
– Bor,
Zulmatni yor! – dedingiz.
U bordi.
Ozodlik musiqoringiz
Tumshug‘ida nur halqalari,
Yurtlardan yurtlarga uchdi tinmasdan,
Qo‘shiqlar aytdi iymon haqida, Vatan haqida:
«Hubbul Vatan min al-iymon!»*
Vo darig‘!
Musiqor endigina sakkiz yil
Manzil qurgan edi yurt peshtoqida.
Endigina cho‘g‘ni halvoday
Tortiq aylagandi bizga barobar.
Portladi,
Portladi,
Portladi...
Sakkiz yoshga to‘lgan barcha bolalar
Hayqirdi o‘sha kun,
Mushtlari tugildi bari-barini,
Mushtlari tugilib, yig‘ladi hammasi...
Qo‘rqishdan emas, g‘azabdan emas,
Ketib qolishingdan xavotirlanib!

O'zlari bilmagan holda tebranib,
Tebranib – tebranib – tebranib,
Hayqirib: «Ota! Ada! Dada!» – dedilar
Birdaniga.

Sen ular ruhining otasi, Ozodlik!

Va sen qolding,

«Hech kimga bermaymiz O'zbekistonni!»

Xitoblar sel bo'lib keldi to'rt yoqdan,

O'zbekning buyuk shaharlaridan.

Millionlar xitobi:

«Hech kimga bermaymiz O'zbekistonni!»

Tv. «Axborot». Jasadlar, qonlar,

Yaralanganlar.

Sho'rlik onalarning dod-u faryodi,

Tobutlar, Odamlar, Iztirob...

Sen uchding ularning ustidan, Ozodlik,

Chalib tumshug'ingda quyoshchaday

Qo'ng'irog'ingni:

– Ogoh bo'ling, ogoh!

Hayot tevarakda, o'lim tevarakda,

Alloh tevarakda, iblis tevarakda...

Qalblarga kiriting tongni, hayotni,

Hurriyatni kiriting!

Yo'llatmang qalbingiz ostonasiga

O'limni, zulmatni, iblisni.

Qo'ymang fosiqlarni!

Yaqinlashtirmang!

Ular sehgardir,

E'timodi yo'q,
Kirib olsalar, bas,
Bo'risiz, bo'ri...
Tishlaysiz, uzasiz,
Sudraysiz, so'ngra
Vayronalar uzra
Mudraysiz uzoq,
La'natga uchraysiz,
Qarg'ishga qolib.
O'ylang! O'ylang!
Tafakkur qiling!
Siz axir zolimlar zuryodi emas,
Siz buyuk siymolar vorislarisiz!
Bolalarni asrang!
Avvalo, bolalarni asrang!
Tv. «Axborot». Mushtini ko'tardi
Prezident,
Ko'kragini kerdi,
To'sdi:
– Sizga men kerakmi?!
Mana, men!
Aytar so'zim shu:
Aziz farzandlarga qalqonman o'zim!
Naqadar ulkan edi
Xalq misli ummon.
O'g'lim olti yoshda edi o'shanda...
– Meni chaqirishayapti! – dedi.
Televizorga qaradim,

Hech kim chaqirmasdi,
Yonib-kuyib so'zlardi barcha.
– Chaqirishmayapti-ku, – dedim hayratda.
– Yo'q, chaqirishayapti, men ko'rayapman,
Hamma bir-birini chaqiryapti...
Men borishim kerak, dada!
Hamma xafa bo'ldi, men xafa bo'ldim –
Biz xafa bo'ldik...
Junjikdim, tilim muzladi,
Xayolga kelgani: «O'g'lim cho'chib,
Kasal bo'ldi, chog'i,
Do'xtirga eltish kerak uni».
Qo'rqdim xayolimdan,
Bag'rimga bosdim o'g'limni...
Nihoyat, tugadi mahzun lavhalar.
O'g'lim o'rnidan turdi,
Ketdi mushtchasin tugib.
«Qayoqqa?» – so'radim,
Indamadi...
To'xtatib qoldim jussasi mitti,
Yuragi quyoshday kenja o'g'limni...
So'ng mening ham hayqirgim keldi,
Qo'shilgim keldi metin saflarga.
Men hali ham ko'r ekanligimni bildim,
Men ko'p narsalarni ko'rmas ekanman,
Alamim keldi ko'r ekanligimdan...

– O‘tkirbek, Abduqodir chempion. Faxr.
 Chegara. Termiz. O‘zingdan chiqqan balolar.
 Qayg‘ular. Afsus-nadomat...
 Afg‘oniston. Tafakkur qatli.
 San‘at va mo‘jiza kundada...
 Muborakda yangi mash‘ala,
 Taraqqiyot mash‘ali.
 Andijonda, Farg‘onada, Samarqandda,
 Xivada, Qarshida,
 Nukus, Buxoro...
 Bayram ortidan bayram.
 Zafarlar bor, bunyodkorlik bor,
 Ozroq qiyinchilik, muammo mavjud.
 Hali boy emasmiz,
 To‘yib quturganlar bor,
 Yutinganlar bor bo‘m-bo‘sh qo‘liga qarab,
 Ammo
 Ro‘zg‘or obod bo‘lar sekin-asta,
 Tinchlik bo‘lsa, bas.
 Faqat olg‘a!
 To‘xtash mumkinmas!
 Fisq-u fasod ofat keltirar,
 Faqat mehnat, aql va tadbir.
 «O‘zlik» maktabi, «Adolat» maktabi,
 «Istiqlol» maktabi, «Baxt» maktabi...
 Savod chiqarayapmiz sekin-asta.
 Biz haqlimiz o‘zimizni

Yogʻdularga burkashga,
Biz haqlimiz yarimta nonimizni
Butlashga.
Biz haqlimiz: «Biz hech kimdan
Kam boʻlmaymiz!» – deb hayqirishga!
Faqat ichimiz ichiga kuyalar kirmasin,
Timdalab, ichimiz azobga qoʻymasin.
Boshimiz ichida aql koʻpirsin,
Telbalik urmasin peshonamizga.
Eldoshlar, yuldoshlar
Jigarlik qilsin.
«Nima boʻlsa, birga!» – desin,
Qasd aylamasin,
Uchmasin tilla solingan
Adovat hamyoniga.
Biz axir devlar-u quzgʻunlar doʻsti emasmiz.
Biz axir yuraklar doʻstimiz!
Biz sening doʻstingmiz, Ozodlik!
Axir, biz haqlimiz jahonda
Sharafli nom qozonishga.
Ozodlik!
Sharaf-u shonim,
Qoʻshiq ayt!
Joʻr boʻlay:
«Vatanni sevmoq iymondandur»,
Iymondandur,
Iymondandur!
Ezgu intilishlar pallasi.

Kenja o'g'lim
Sakkizga kirdi.
Inglizcha bilar sal, o'rischa andak,
Yangi imloga ta'bi bor tuzuk.
G'ururlanib yurar o'zbekligidan,
Men yozgan kitoblarni o'qiy boshladi.
Mirjalol Qosimovdek futbolchi
Bo'lmoqchi,
Nasib etsa.
Uchuvchi bo'lmoqchi,
Quruvchi bo'lmoqchi...
Kattakon xayollarni surmoqda bolam,
Katta orzularni o'ylamoqda bolam.

Xushxabar:

Rustam Qosimjon

Chempion.

Shatranj shohi.

Mot bo'ldi shaxmat shahzodalari,

Dunyo zabt etildi yana bir bora,

Tafakkur bahsida,

Aql bahsida.

Undan so'ng

Gijgijlangan malaylar xuruji,

Sirli nayranglarning laqma to'dasi,

Shaytonga ergashib qon to'kadilar

Toshkentda.

Sovuq gaplar:

Adashganlar,
Chalkashganlar,
Aygash-uyqashganlar...
Achinish, nafrat.
«Nahot, o'zimizdan?!»
Hayqiriq;
Axir, Payg'ambarga ergashganlar iymon
Qasrini qurdilar.
Buzmaydilar, o'ldirmaydilar.
Axir chin musulmlar kechirimlidir,
Allohdan so'rarlar, bandadan emas!
Axir, xudkushlik rabboniy emas!
Birodarkushlik – gunohi azim!
Ey siz ko'zlarini parda bosganlar,
Ey siz o'z bog'iga arra surganlar,
Kim sizni aynitdi?
Bu qanday g'avg'o?
Bu qanday oqibat ona-Vatanga –
Ajal urug'imi sizning sovg'angiz?!
Sizga nima bo'ldi?
Bu qanday alam?!
Noraso dunyoda, yurtida nima ayb,
Biri kam dunyoda elda nima ayb?
Nega o'zingizga qasd ayladingiz,
Nega eldoshlarni qildingiz qurbon?
Nega?
Balki, kim biladi, qayerlardadir
Sizni hiylasiga qurchoq etganlar,

Dahshatli o'limning savdogarlari,
Vahshatli fitnalar shum dallollari,
Qahva ichmoqdalar, xo'jalari-la:

«Nifoq sochildi,
Ofat sochildi.
Buyuklik yurti tugaydi endi...»
Bilmaslar tolesiz, aqli noqislar,
Tugatib bo'lmaydi O'zbekistonni!
Yo'qotib bo'lmaydi O'zbekistonni!
Imom Buxoriy,
Imom Termiziy,
Hazrat G'ijduvoniyy,
Hazrat Naqshband,
Najmiddin Kubro,
Jorulloh Zamaxshariy,
Imom Moturidiy,
Hazrat Marg'iloniy,
Boboyi Samosiy duolaridan,
Hazrat Sohibqiron va Manguberdi,
Pahlavon Mahmud va Temur Malikning
Ruhlari bilan
Minglab ulug' zotlar tilovatidan
Zirh o'ralgandir Vatanimizga!
Hech qachon yorilmas,
Kuliga qorilmas,
Bilsinlar!
Tavba qilsinlar!

Chunki biz –

Qo'rg'onli, mustahkam millat,
Tarix kitobiga bitilgan hikmat,
Bir jonmiz, bir tanmiz, yalakat mag'iz.

Qoldirsak, biz birga qoldiramiz iz,
Agar xastalansak, davo o'zimiz,
Illat gar bossa, tadbir o'zimiz,
O'zimiz yurmasak, birov yurdirmas,
Agar kechirmasak, birov kechirmas,
O'zimiz topamiz, birovlar bermas,
Yonsak bir tan-u jon,
O'chirolmas hech kas!

O'chirolmas abas!
Qo'lni qo'lga bering,

Ota-onalar,
Aka-ukalar,
Opa-singillar!

Ma'rifat yengajak shum jaholatni,
Muhabbat yengajak chirkin istakni!
Bizlarga tinchlikning rayhoni kerak,
Jambili kerakdir farovonlikning!
Ayting, pok umidga qarshilar bormi?
Ayting, tinchlikka bormi qarshilar?
Bor bo'lsa alarning torbog'i bo'lak,
Tikanli maskani o'ziga to'shak.
Ne qilsa joyida dog'lanaversin,
Biz esa,
Biz esa,

Biz esa
Mash'ala ko'tarib hammamiz,
Shaxdam qadam tashlab,
Qad rostlab mag'rur
Boraylik
Jadal-u savashlargamas,
Yurtni gul-lolaga to'ldirmak uchun,
Qasr-u koshonalar bunyod etmakka.
Musaffo osmonni,
Qutlug' tonglarni,
Ko'z-u qorachiqqa joylab batamom.
Kuydirib malomat egalarini,
Xusumat qavmining barmoqlarini,
Tuhmat lashkarining tomoqlarini,
Ko'rnamak «do'st»larning oyoqlarini,
Mashala ko'tarib boraveraylik
Millionlab Ozodlik
Bolalari-la,
Millionlab
Hurriyat yoshlari ila,
Millionlab
Armoni ushalganlar-la
Boraveraylik,
Biz bilan birga qadam tashlasin
Ozodlik!
Biz bilan birga yashasin
Ozodlik!
Yashasin, yashasin, yashasin!..

MUNDARIJA

Biz birgamiz, biz hammamiz	3
Da'vat.....	7
Samarqand.....	10
O'zbeklar	13
Pianino. 1942-yil.....	15
Niyat.....	16
Esdalik.....	18
Uzun jumla.....	20
Kirish.....	21
Bombey aksiomasi	23
Pam-par-ey-ra.....	24
Ezgu ruh xususida fikr	26
Bobur	28
Ahmad Yassaviy. XII asr	29
Shayx Shibliy va it borasida.....	31
Sen qodirim, bahodirim... ..	32
Afrosiyob.....	33
Falafa	35
Sham haqida so'z.....	37
Armon. Jaloliddin Rumi	39
Izladim, izladim, o, benihoya.....	42
Qalandar	44
O'tinch	45
Ajib	47
Bahrom va Dilorom.....	48
Chunonam.....	50
Ey do'st, qanday qilib ko'nglingni olay.....	51
Sirli bandargohda quyuq tuman... ..	52

Osmonni surib qo'y, osmon qolmasin.....	53
Qarsillab yopilgan... ..	54
Subhlar ho'playdi patli havoni... ..	56
Baliqning tishi-la tilimni tildim... ..	57
Seni topib olay desam, yo'llar qaysar... ..	58
Jala quydi, toshlar yumshab yorildilar... ..	59
Ninachi qanotin hijob qilsaydi... ..	60
Hech kim suygan emas meni senchalik... ..	61
Sen baxtli quldorsan, Osimal.. ..	62
Istardim,.. ..	63
Biz ham... ..	65
Holatlar.....	66
Qorsan, muvaqqatsan, eriysan, yo'qsan —... ..	70
Yomg'ir	71
Burda-burda-burdalab jonimni o'yib olgin... ..	72
Qo'limda alanga yaprog'i... ..	73
Momig'im, yumshog'im, to'shagi ko'klam... ..	74
Yuz yil	75
Asal.....	76
Ey dilbarim.....	78
Ushmundoq	79
Sha'mi bahorimda, ohorim mana —... ..	80
Nafas	81
Sarvim, arazlabsiz, hijob tutibsiz... ..	82
Ehrom.....	83
Qadimiy navolar, qanday davolar... ..	84
Orazi ko'zguda ayni hiloldur... ..	85
Qaysi muzofotda, qaysi ko'chada... ..	86
Muyassar bo'lmag'ay husni-jamoling... ..	87
Meni balo ko'rdilar, seni a'lo ko'rdilar... ..	88
Samarqandcha.....	89
Soqchilik... ..	90
Afsus, afsunlarin yod oldim, esiz... ..	91

Osima uchrashsak tuning yarmida...	92
Yiyna urib tikib qo'ying Farg'onani ko'zlarimga...	94
Ikki metafora.....	95
Nazmdagi nasr.....	97
Erdon suvchi Oqdaryoda jon berdi.....	97
Oybuvi Elmurol naymanning otiga mindi	99
Jabbor maxsido'z iblisni tanimadi.....	100
Sodiq sartaroshning o'g'li o'g'ri bo'ldi	101
Ali chavandozni qarg'ish urdi	102
Laqma Eshqul afsonasi	103
Armon.....	105
Erkin aruz.....	106
Bilmam.....	106
Ozodlik	107

Adabiy-badiiy nashr

Abduvali QUTBIDDIN

Muharrir: Abdulla SHAROPOV

Badiiy muharrir: Bahridin BOZOROV

Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV

Sahifalovchi: Rustam ISOQULOV

Musahhih: Shahzoda HAKIMOVA

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 02.12.2019-y.

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2020-y.

Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi: 84x108^{1/32}

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t.: 4,5. Shartli b.t.: 5,2.

Adadi: 3000 nusxa.

Buyurtma № 52

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^A-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77

e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz

«Javoxir nashr» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Ziyolilar ko'chasi 6-uy.

ISBN 978-9943-6359-5-1



9 789943 635951